

J.K Rouling, Jon Tiffani,  
Jek Torn



# GARRI POTTER va La'natlangan Bola

@GARRIPOTTER8

**J.K. Rouling, Jon Tiffani,**

**Jek Torn**

**GARRI POTTER**

**VA LA'NATLANGAN BOLA**

Pyesa

I Qism

**TARJIMON: Asadbek Tolipov**

**@GARRIPOTTER8**

**@Dumbledore\_army01**

## **Birinchi akt**

### **Birinchi parda**

#### **Kings Kross**

Stansiya qayergadir shoshilayotgan odamlarga to‘lgan bo‘ladi. shovqin va yugur-yugur orasida yuk to‘la ikki arava ko‘rinadi. Aravani ikki bola boshaqarib keladi ular: Jeyms Potter va Albus Potter. Ular bilan yonma- yon onasi Jinna va kichkina qizalog‘ini yelkasida ko‘tarib olgan o‘ttiz yetti yoshli Garri keladi.

ALBUS: Dada! U yana shu gapni qaytaryapti.

GARRI: Jeyms, uni tinch qøy. jiddiy nigohini ko‘rib indamadi.

JEYMS: Men shunchaki unga Slizerin fakultetiga qabul qilining mumkin deb aytdim. Balki qabul qilar shuning uchun... (otasining jiddiy nigohini ko‘rib indamaydi)

ALBUS: (Onasi tomon yuzlanib) Siz menga xat yozib turasiz, to‘g’rimi ?

JINNA: Istanasang har kuni xat yozamiz.

ALBUS: Yo‘q har kuni emas Jeyms aytyaptiki ba‘zi o‘quvchilar uyidan bir oyda bir martagina xat olishar ekan. Men bunday bo‘lishini istamayman.

GARRI: O’tkan yili akang uchun haftasiga uch martalab xat yozardik.

ALBUS: Nima ? ALBUS JEYMSGA jahllanib qaradi.

JINNA: Xogvars haqida gapirgan hamma gapiga ham ishonaverma akang hazilkash.

JEYMS: (Kulimsirab) Endi biz o‘tishimiz mumkin.

ALBUS otasi va onasiga qaradi.

JINNA: Mana, to‘qqizinchi va o’ninchi platforma o‘ratasidagi to‘sinqqa qarab to‘g’ri

yursangiz kerakli platformaga chiqib olasiz.

LILI: Qoyilmaqom

GARRI: Muhimi to'xtamang, to'siqqa urilib ketishdan qo'rwmang. Agar asabiylashayotgan bo'lsangiz bo'lsangiz yugurib tezlik olib o'ting.

ALBUS: Men tayyorman.

GARRI va LILI ALBUSNING aravasini ushlaydi. JINNI esa JEYMSNING aravasini ushlaydi va birlashib to'siq osha o'tishadi.

## **Ikkinci parda**

### **To'qqiz butun to'rtdan uchinchi platforma**

Xogvars ekspresi platformasi quyuq tutun va odamlarga to'lgan bo'ladi. Chiroylidazmollangan kostyumlarda yurgan odamlarni vokzalda har kuni uchratish mumkin lekin, bu yerda rido kiyib olgan sehrgarlarga to'la bo'ladi. Har kim o'z ishi bilan band. Ota-onalar suyukli farazandlari bilan hayrlashishyotgan bo'ladi.

ALBUS: Mana u.

LILI: Qoyil

ALBUS: To'qqiz butun to'rtdan uchinchi platforma.

LILI: Qani ular Kelishdimi ? balki hali kelishmagandir ?

GARRI uzoqroqda RON, GERMIONA va ularning qizi ROZA turgan tomonni ko'rsatdi.

LILI: Ron amaki ! Ron amaki !

RON tomon yuguradi.

RON o'giriladi va LILI unga hursand bo'lib sakraydi.

RON: Bu qizaloq meni sevimli Potterim emasmi.

LILI: Menga fokus ko'rsatasizmi.

RON: Sen Uizlilar tomonidan tasdiqlangan burun o'g'irlovchi havosidan xabordormisan ?

ROZA: Oyi dadam yana o'sha bemani ishini qilmoqchi.

GERMIONA: Sen be'mani deysan, dadang ajoyib deb hisoblaydi. Menga esa... o'rtacha.

RON: Shoshmay tur. Shu havodan yaxshilab... chaynab olay. Ana endi, bu juda oddiy... Agar sal-pal sarimsoq hidi kelayot bo'lsa mazur tutadilar.

RON LILINING yuzi yonida chuqur nafas oladi. LILI hiringlab kulib qo'yadi.

LILI: Sizdan bo'tqa isi kelyapti.

RON: Bing. Beng. Bong. Hech qanday hid sezmaslikka tayyorlaning yosh xonim.

RON LILINING burnnnini kavlab qo'yadi.

LILI: Qani meni burnim ?

RON: Ta da

Uning qo'li bo'sh. Bu shunchaki bemani fokus. Bu fokus hammaga yoqadi.

LILI: Siz masxarabozsiz.

ALBUS: Hamma bizga qarayapti.

RON: Hamma bizga qarashining sababi menda . Men juda mashhurman. Meni burun bo'yicha o'tkazgan tajribalarim misli ko'rilmagan darajada mashhur.

GERMIONA: Ha, bu tajribalar shak-shubhasiz nimanidir anglatadi.

GARRI: Mashinani to'xtash joyiga qo'yish yaxshi kechyapdimi ?

RON: Ha yaxshi, lekin Germiona magllarning haydovchilik imtihonidan o'ta olganimga hali ham ishonmayapti. Imtihon oladigan yo'riqchiga konfudus qo'llagan deb o'layapti.

GERMIONA: Hech nimani o'ylaganim yo'q men senga ishonaman.

ROZA: Men esa konfudus qo'llaganizga ishonchim komil.

RON: Hoy jim!

ALBUS: Dada...

ALBUS dadasining qo'lidan tortdi. GARRI pastga qaraydi.

Siz nima deb o'ylaysiz... Agar meni Slizeringa qabul qilishsa...

GARRI: Xo'sh, buni nimasi qo'rqinchli ekan.

ALBUS: Slizerin Qora afsun va ilonlar fakulteti. Jasur-mard sehrgarlar fakulteti emas.

GARRI: Albus Severus, sen Xogvarsdag'i ikki buyuk direktor sharafiga senga shunday ism qo'yilgan. Ulardan biri Slizerinda o'qigan lekin bunga qaramay men bilgan odamlar ichida eng jasur -mard kishi edi.

ALBUS: Lekin, aytinchchi...

GARRI: Hammasi o'zinga bo'g'liq, saralovchi shlapa qalbinga ham quloq tutadi.

ALBUS: Rostdanmi ?

GARRI: Bunday holat menda yuz bergen. U avval hech qachon bunday demagan ekan. Menimcha qachonlardir bu gaplarni u yana aytadi. Xogvars ajoyib joy, u yer senga albatta yoqib qoladi.

ALBUS: Men hech narsadan qo'rmaslikka va'da beraman.

JEYMS: Festrallardan uzoqlashma. Ular bilan birga yur.

ALBUS: Ha bilaman, chunki ular ko'rinas.

GARRI: O'qituvchilaringa quloq sol. Jeymsga quloq solma va o'zligincha qol. Ana endi poyezd ketib qolishini istamasangiz shoshilishingiz kerak.

LILI: Men poyezd ortidan yuguraman.

JINNA: Lili, tezda ortinga qayt.

GERMIONA: Roza, Nevilni bizning nomimiz yaxshi ko'rishing aytib o'pib qo'y.

ROZA: Oyi, qanday qilib professorga uni yaxshi ko'rishini aytaman.

ROZA poyezdga chiqadi.

ALBUS, GARRI va JINNINI quchoqlab oladi.

ALBUS: Ho'p mayli. Hayr !

U vagonga chiqadi.

GERMIONA, JINNA, RON va GARRI bolalarini poyezdga kuzatib qo'yib oh tortib platformani yark etadi.

JINNA: Ularning ishlari joyida bo'ladi, to'g'rimi ?

GERMIONA: Xogvars katta joy.

RON: Katta, Ajoyib, Ovqatga to'la. Men u yerga qaytish uchun hamma narsamni bergen bo'lar edim.

GARRI: Qiziq, Al, Slizerin fakultetiga tushib qolishdan xavotirda

GERMIONA: Bu hech narsa emas. Roza maktab kvidish rekordini birinchi yoki ikkinchi yili yangilay olmasligidan va S.O.V ni erta olishidan xavotirda.

RON: Unga shuncha g'ayrat kimdan o'tganligiga hayronman.

JINNI: Garri, agar Al rostdan ham shu fakultetga tushsa nima bo'ladi.

RON: Bilasanmi, Jinna biz seni doim slizerin fakultetiga tushishingni o'ylardik.

JINNI: Nima ?

RON: Rostdan, Jorj bilan Fred bu haqida hatto kitob ham yozishgan.

GERMIONA: Balki ketarmiz. Hamma bizga qarayapti.

JINNA: Odamlar doim siz uchalangiz birga bo'lsangiz sizlardan ko'z uzishmaydi.

JINNA GARRINI to'xtatadi..

Uni ishlari joyida bo'ladi, to'g'rimi

GARRI: Albatta, hammasi yaxshi bo'ladi.

## **Uchinchi parda**

### **Xogvars Ekspress**

Albus va Roza Poyezd vagonining uzunasiga ketgan yo'lagidan ketishadi. Ular tomon shirinlik sotuvchisi aravasini yetaklab yaqinlashib keladi.

Shirinliklar sotuvchisi: Aravachamdan nimadir olishni istaysizmi bolakaylor. Mana qovoqli pecheniylar, shokobaqalar, kotlokekslar.

ROZA ALBUSNI shokobaqaga hursand bo'lib qarab turganini ko'radi.

Al, biz birlashishimiz kerak.

ALBUS: Birlashishimiz kerak, nima uchun ?

ROZA: Biz do'stlashishimiz kerak. Mening oyim va dadam seni dadangni birinchi marta Xogvars ekspressida ketishayotganida tanishishgan. Buni o'zing bilsang kerak.

ALBUS: Shuning hozir biz butun umrlik do'st tanlashimiz kerak demoqchimisan ? Jerkib beradi

ROZA: (Bu jerkishga javoban) Men Grenjer-Uizliman, Sen Pottersan harkim biz bilan do'stlashishni istaydim. Biz istaganimizni tanlashamiz mumkin.

ALBUS: Avval qaysi kupega joylashish masalasini hal qilib olaylik.

ROZA: Hammasini ko'rib chiqaylikchi, keyin biror qarorga kelarmiz.

ALBUS birinchi uchragan kopeni ochadi va xonada bor o'zi otirgan rangdor sochli SKORPIUSNI ko'radi. Kupeda boshqa hech kim yo'q. ALBUS unga kulib qaradi. SKORPIUS ham bunga javoban kulib qo'ydi.

ALBUS: Salom, bu kupe...

SKORPIUS: Bo'sh. Faqat men borman.

ALBUS: Kirsak bo'ladimi ? Ko'p vaqtga emas

SKORPIUS: Bo'ladi. Salom.

ALBUS: Albus. Al. Men... mening ismim Albus...

SKORPIUS: Salom, Skorpius, shunchaki Skorpius. Sen Albussan. Men Skorpiusman. Sen esa menimcha...

ROZANING yuzi har soniyada asabiylik paydo bo'la boshlaydi.

ROZA: Roza

SKORPIUS: Salom, Roza. Menda turli shirinliklar bor tatib ko'rishni hohlaysanmi ?

ROZA: Men nonushta qilganman, rahmat

SKORPIUS: Menda shokokok, yalpixli shaytoncha va mazali jeleli shilliqurtlar bor. Oyim menga "Shirinliklar doim do'st orttirishinga yordam beradi deb qo'shiq kuylab beradi. Bu qo'shiq xato ekanligini oyim hech tushunmaydi.

ALBUS: Men ozgina xohlardimu... oyim shirinlik yeyishimga ruhsat bermaydida. Sen doim qaysi biridan boshlaysan ?

ROZA SKORPIUSGA yomon qarab qo'ydida va ALBUSNI ketishga ishora qilib tepib qo'yadi.

SKORPIUS: Bu juda oddiy. Men hardoim shirinlik qopchamda yalpixli shaytonchani olib yuraman. Bu yalpixliki, qulog'ingdan tutun chiqadi.

ALBUS: Ajoyib, agar men...

ROZA yana uni tepadi.

Roza meni tepishdan to'xtayolmaysanmi ?

ROZA: Men tepmayapman.

ALBUS: Tepyapsan, o'g'riyapti-ku axir.

SKORPIUS: (kulishni to'xtatadi) Uni tepishini sababi menda.

ALBUS: Nima ?

SKORPIUS: Gapimni eshit, men kimligingni bilaman, balki sen meni kimligimni bilsangadolatli bo'lar

ALBUS: Sen meni kimligimni bilarkansan, xo'sh nima qilibdi ?

SKORPIUS: Sen Albus Pottersan. U Roza Grenjer-Uizli. Men esa Skorpius Malfoy bo'laman. Meni ota-onam Astoriya va Drako Malfoy bo'ladi. Bizning ota-onalarimiz bir- birlari bilan yaxshi chiqishishmaydi.

ROZA: Sen oddiygina qilib aytding. Seni ota-onang o'limdan miriquvchilar bo'lishgan.

SKORPIUS: (Bu haqoratga qarshi) Otam bo'lgan lekin onam emas.

ROZA: (Ehtiyotkorlik bilan) Men eshitganman. Sen yolg'on gapiryapsan.

ALBUS yuzini SKORPIUSGA jiddiy qarab turgan ROZAGA buradi.

ALBUS: Nimani eshitgansan.

SKORPIUS: Mish-mishlarga qaraganda, mening ota-onam farzandli bo'lisha olmas emish. Dadam va bobom merosxo'rlik bo'lisha olmasligidan tushkunlikka tushibdi. Malfoylar sulolasini bunday falokatdan qutqarish uchun ular vaqt aylanasidan foydalanim o'tmishga jo'natgan emish.

ALBUS: Uni o'tmishga jo'natgan, nimaga ?

ROZA: Mish-mishlarga qaraganda u Voldemortning o'g'li emish.

Oraga g'alati sukunat tushadi.

Bu g'irt safsata. Men uni tashqi ko'rinishini bilaman... qara seni burning bor.

ROZANING yuzidagi asabiylik keta boshlaydi.

SKORPIUS baland ovozda kuladi.

SKORPIUS: Huddi otamnikiday uning sochi, uning burni. Bular faxrlanishga arzimaydi. Va yana otadan o'g'ilga kamlik qilganday familya ham o'tadi, u ham bor. Bir tarafdan Qora lordning o'g'li bo'lgandan, Malfoy bo'lganining yaxshi.

SKORPIUS va ALBUS bir biriga qarab qo'yadi.

ROZA: Ha to'g'ri. Biz boshqa kupega joylashishimiz kerak. Ketdik Albus.

ALBUS biroz o'ylanadi.

ALBUS: Yo'q. (Rozadan nariroq suriladi) Hammasi joyida sen ketaver.

ROZA: Albus men seni kutib turgim kelmayapti.

ALBUS: Men seni to'xtatib turganim yo'q. Men shu yerda qolaman.

ROZA bir soniya unga qaraydida so'ngra kупедан chiqib ketadi.

ROZA: Yaxshi bo'libdi.

SKORPIUS va ALBUS ikkisi kупеда yolg'iz qolib bir-biriga ma'nosiz tikilib o'tiradi.

SKORPIUS: Rahmat.

ALBUS: Yo'q, yo'q Men seni deb emas shirinliklaringni deb qoldim.

SKORPIUS: Juda Ga'lati bola ekansan.

ALBUS: Ha, kechirasan.

SKORPIUS: Yo'q men hursandman. Seni Albus degan yaxshimi yoki qisqartirib Al ?

SKORPIUS kulib og'ziga ikkita konfetni soldi.

ALBUS (O'ylanib) Albus.

SKORPIUSNING qulog'idan tutun chiqadi.

Meni konfetlarim uchun qolganinga rahmat, Albus.

ALBUS: (kulib) Qoyil.

## To'rtinchchi pardalari

## O'tkazib yuborilgan pardalar

Ana endi voqealar ko'p o'zgarishlar bilan boshlanadi. Bu voqealar sehr-jodularga boy. O'zgarishlar shunchalik ko'pli voqealrni ko'rsatish uchun turli joylarda bo'lamiz. Bu yerda alohida pardalar yo'q. Faqat o'zgarayotganligini ko'rsatuvchi buyumlar va voqealar bo'ladi. Birinchi bo'lib biz Xogvars mакtabida Albus atrofida aylanib yurgan bolalar bilan bo'lamiz.

POLLI CHAPMAN: Albus Potter !

KARL JENKINS: Potter biz bilan !

YAN FREDERIKS: Uni sochlari, huddi otasinikiday.

ROZA: Yana u meni amakivachcham bo'ladi.

Hamma ROZAGA qaraydi.

Men Roza Grenjer-Uizli bo'laman. Tanishganimdan hursandman.

Shu payt bolalar orasiga SARALOVCHI SHLAPA olib kelinadi. Uzoq kutilgan saralash boshlanadi. ROZA navbati kelayotganidan hayajonlana boshlaydi. Qizaloq o'z taqdiri qabul qilib olayotganday ko'rindi.

SARALOVCHI SHLAPA:

Ming yildan buyon maktabga qilarman xizmat.

O'quvchining qalbi bilan qurarman suhbat.

Har bir o'quvchini yaxshi bilarman,

Ularni doim to'g'ri yo'lga boshlarman

Navbatingiz kelar meni kiying, ko'ramiz .

Qaysi fakultetda o'qishingiz bilamiz.

Roza Grenjer Uizli

ROZANING boshiga shlyapani kiydirishadi.

Griffindor !

Griffindor o'quvchilari ROZANI olqishlashdi. ROZA, Griffindor o'quvchilari

turgan qatorga qo'shiladi.

ROZA: katta rahmat !

SKORPIUS, ROZA ketgandan so'ng joyini tezda egallaydi. SARALOVCHI SHLAPA unga norozi ohangda qarab qo'yadi.

SARALOVCHI SHLAPA: Skorpius Malfoy

SKORPIUSNING boshiga shlapa kiydiriladi.

Slizerin !

SKORPIUS buni kutgan bo'ladi. U maql deb bosh qimirlatib qo'yadi. Slizerin o'quvchilari uni olqishlashadi. SKORPIUS ularning qatoriga qo'shiladi.

POLLI CHAPMAN: Uni Slizeringa tushishi tabiiy hol.

ALBUSNING navbatи kelib sahnaning old qismiga tezda chiqadi.

SARALOVCHI SHLAPA: Albus Potter !

ALBUSNING boshiga shlapa kiydiriladi. SARALOVCHI SHLAPA uzoq o'ylanadi.

Slizerin !

Oraga jimlik cho'kadi. Bir- biriga yaqin o'tirgan odamlar shivirlashib bu jimjitlikni buzishadi.

POLLI CHAPMAN: Slizerin ?

KENJA KREYK BOUKER: Nima ? Potter Slizerinda.

ALBUS bu gapga ishonmay atrofga alanglaydi. SKORPIUS kulib unga qarab qichqiradi.

SKORPIUS: Biz ikkimiz bir partada o'tiramiz.

ALBUS: (Hafaligini yashirib) Ha, albatta.

YAN FREDERIKS: Uni sochi hech qanday ahamiyatga emasligini bilardim.

ROZA: Albus ? Bu qandaydir xato. Bunday bo'lmasligi kerak.

Vaqt o'tib XUCH XONIMNING uchish darsi boshlanadi.

XUCH XONIM: Qani bolalar nimani kutyapsizlar tezroq supurgini yoniga turib oling.

Bolalar supurgi yoniga tirib olishdi.

Qo'lingizni supurgi ustiga uzating va „Tur" komandasini bering.

HAMMA: „Tur" !

ROZA va YANNING supurgisi shu zahoti tik turib, sopi qòliga yetadi.

ROZA va YAN: Qoyil !

XUCH XONIM: Qani bolalar bo'la qolinglar, meni bekorchilarga sarflaydigan vaqtim yo'q. „Tur" deganizingizni supurgilar tushinishi kerak.

HAMMA: (ROZA va YANDAN tashqari) „Tur"

SKORPIUSNING supurgisi ham unga itoat qiladi, faqat ALBUSDAN supurgisi yerda yotgancha qoladi.

HAMMA: (ROZA, YAN va ALBUSDAN tashqari) Qoyilmaqom.

ALBUS: Tur ! Tur! Tur!

Uning supurgisi bir millimetrga ham joyidan qo'zg'almaydi. U supurgisiga umidsizlanib qarab qoladi. Boshqa tomonda o'quvchilar hiringslashib kula ketishadi.

POLLI CHAPMAN: Eh attang, otasidan bir tomchi qobiliyat ham o'tmabdida.

KARL JENKINS: Albus Potter Slizerindagi shvax ekan.

XUCH XONIM: Yaxshi bolalar, endi supurgilarni egarlab parvoz qilamiz.

Ana endi biz yana tutunga to'lgan to'qqiz butun to'rtdan uchinchi platformaga qaytamiz. ALBUS bir yoshga ulg'aygan bo'ladi. Uning ortidan otasi Garri

kelmoqda u ham bir yoshga ulg'aygan bo'ladi

ALBUS: Dada, men sizga aytdimku, men bilan yurganingizda sal nariroq yuring deb.

GARRI: Ikkinchi sinf o'quvchilari otasi bilan yurganini boshqalar ko'rishini hohlamaydi, to'g'rimi ?

Qandaydir JUDA E'TIBORLI SEHRGAR ular atrofida aylana boshlaydi.

ALBUS: Yo'q, shunchaki, siz bu siz. Men esa... Men shunchaki...

GARRI: Hoy, oshna bular shunchaki nazar tashlab ketayotgan odamlar. Odamlar har doim yo'lida uchragan odamlarga qarab yurishadi. Keyin ular senga qarashmaydi, ko'proq menga qarashadi.

Shu payt JUDA E'TIBORLI SEHRGAR, GARRIGA imzo qo'yib berishi so'rab, qog'oz uzatadi. GARRI imzo chekadi.

ALBUS: Tagiga Garri Potter va uning noshud o'g'lidan deb yozib qo'ying.

GARRI: Bu gaping bilan nima demoqchisan ?

ALBUS: Yoki, Garri Potter va Slizerinda o'qiydigan o'g'lidan deb yozib qo'ying.

JEYMS yuklari bilan tez yura boshlaydi.

JEYMS: Shu Slizerin xarxashasini hech tugatmas ekansanda. Vaqt bo'ldi poyezdga chiqaylik endi.

GARRI: Qo'yaver Jeyms bir kun kelib o'zi tushunib qoladi.

JEYMS (keta turib) Rojdestvogacha ko'rishguncha, dada.

GARRI bezovtaday ALBUSGA qaraydi.

GARRI: AL...

ALBUS: Mening ismim Albus, Al emas.

GARRI: Maktabdagi qolgan bolalar ham senga o'xshab qo'pol muomalada bo'lishadimi ? Maktabda muamolaring bormi? Balki biror bir yaxshi do'sting

yo'qmi? Bilasanmi, Agar Germiona va Ron kabi do'stlarim bo'limganda men Xogvarsda yashay olmagan bo'lar edim.

ALBUS: Bilaman siz do'stlaringiz Germiona va Ronni yaxshi ko'rasiz. Lekin menga ularni keragi yo'q. Meni o'z do'stim - Skorpius bor. Bilaman siz uni uncha yoqtirmaysiz, lekin menga boshqa do'st kerak emas.

GARRI: Qanday bo'lishidan qat'iy nazar baxtli bo'lsang bo'ldi menga shuni o'zi kifoya.

ALBUS: Meni stansiyagacha kuzatib qo'yishingiz shart emas o'zim ketaveraman.

ALBUS o'gir chemodonini ko'tarib keta boshlaydi.

GARRI: Men shunchaki yuklaringni ko'tarishga yordamlashmoqchi edim.

ALBUS bu gaplarga parvo qilmay yo'lida ketaveradi. Shu payt odamlar galasi orasida DRAKO MALFOY paydo bo'ladi. Uning ridosi ajoyib ko'rinar Rangdor sochlarini yig'ib o'ziga xos „dum" yasab olgan bo'ladi. U GARRI tomon yaqinlashib keladi.

DRAKO: Menga yordaming kerak.

GARRI: Drako, tinchlikmi?

DRAKO: Og'limning kelib chiqishiga oid turli mish-mishlarni oxiri hech ko'rinxaydiganga o'xshaydi. Xogvarsdag'i ko'q o'quvchilar o'g'lim bilan chiqishmayapti ekan. Urush paytida sehrgarlik vazirligi vaqt aylanasini vazirlik idorasida yo'q qilinganligi haqida ommaga axborot berilgan bo'lsada, mish-mishlar hech...

GARRI: Shunchaki, sabr qil. Tez kunda bu gaplar tinchiydi.

DRAKO: Bu gap so'zlardan charchab ketdik. Astoriyani ham tobi yo'q. Biror nima qilmasam bo'lmaydi.

GARRI: Agar sen bu gaplarga aralashsang o'zinga qiyin bo'ladi. Odamlar bu gaplarga ishona boshlaydi. Voldemortning o'g'li bu quruq gap so'z. Vazirlik, odamlarni bu gap so'zlarga ishonmaslikka majburlay olmaydi. Sen shunchaki sabr qil va beg'araz bo'l.

DRAKO bu gaplarni maqullamaganday ho'mrayib turadi.

Keyingi parda

ROZA va ALBUS chemodonlari bilan birga turishadi.

ALBUS: Poyezd joyidan siljishi bilan, og'zingni yopasan tushundingmi.

ROZA: Bilaman kattalar orasida o'zimizni xuddi gaplashayotgandek tutamiz.

Shu payt mag'rurlanib katta chemodon ko'tarib SKORPIUS keladi.

SKORPIUS: (kulib) Salom, Roza

ROZA: (Ensasi qotib) Hayr, Albus.

Yana Xogvars katta zaliga qaytamiz. PROFESSOR MAKGONAGALL zal tog'risida o'quvchilarga qarab kulib turardi.

PROFESSOR MAKGONAGAL: Qadrli o'quvchilar, Kvidish bo'yicha Griffindor jamoasining yangi ovchisini tanishtirishga ruhsat eting. Roza Grenjer-Uizli.

Zaldan olqishlar eshitildi. SKORPIUS ham qarsak chalib olqishlamoqda.

ALBUS: Unga qarsak chalyapsanmi? Biz Kvidishga qiziqmasak, ustiga ustak u boshqa fakutetdan bo'lsa

SKORPIUS: Ahir u seni amakivachangku.

ALBUS: Nima deb o'ylaysan agar meni uni o'nida bo'lganimda u menga qarsak chalgan bo'lardimi ?

SKORPIUS: Bilmadim. Lekin u ajoyib qiz .

Vaqt o'tib sehrli damlamalar tayyorlash fani boshlandi.

POLLI CHAPMAN: Albus Potter. Sen juda g'alati odamsanda zinadan chiqib kelayotganingda devor suratlaridagi odamlar han seni ko'rishsa yuzini burib olishadi.

Bu gaplar Albusni qaynayotgan damlamadan ko'zini uzishga majburlay olmadi.

KARL JENKINS: Kelib-kelib shu ovsar Potter bilan voldemortni o'g'li bilan valaqlashyapsanmi. Ulardan nariroq yur.

ALBUS: Yana bir tomchi salamandir qonidan qo'shsak...

Damlama baland ovozda bilqillab, gumburladi.

SKORPIUS: Hech qo'rqinchli joyi yo'q yana qanday masalliqlar qoshish kerak?

ALBUS: Boshqattan boshlash kerak.

Vaqt o'tib ALBUSNING ko'zlari qora tus olib yuzi xuddi kasalday sarg'aya boshladi. U hali ham yoqimtoy lekin o'zi bunday deb o'yamasdi.

Yana to'qqiz butun to'rtdan uchinchi platformaga qaytamiz. Yana ota o'z o'g'liga hammasi yaxshi bo'lishini aytmoqda. Ular bir yoshga ulg'ayishgan.

GARRI: Uchinchi yil juda muhim yil. Mana senga Hogsmidga borishing uchun ruxsatnoma.

ALBUS: Men Xogsmiňga bormayman. U yerni yomon ko'raman.

GARRI: Qanday qilib umringda biror marta ham bo'lмаган joyni yomon ko'rishing mumkin ?

ALBUS: Chunki u yerda ham Xogvars o'quvchilari bo'ladi.

ALBUS ruxsatnomani buklab g'ijimladi.

GARRI: Axir bu seni shirinliklar qirolligiga olib boradigan imkoniyat-ku Oying u yerda senga to'sqinlik qilolmaydi. Xohlaganingcha shirinlik yeysanku. Borishing kerak...

ALBUS: (Sehrli tayoqchasini silkitib) Insendio !

G'ijimlangan qog'oz alanga olib, shu zahoti yo'q bo'ldi.

GARRI: Eh nima qilib qo'yding, Albus.

ALBUS: Buni qarang, o'xshaydi deb o'ylamagan edim. Daxshatli afsun ekan.

GARRI: Albus men Proffessor Makgonagal bilan boyqush orqali xat yozishib

turdik. U aytishicha sen odamovi, darslarda faol qatnashmas, odamlar bilan qo'pol muomalada ekansan.

ALBUS: Xo'sh menga nimani maslahat berasiz ? Mashhur sehrgar bo'laymi ? Yoki Boshqa fakultetga o'taymi ? Yaxshisi a'lochi o'quvchi bo'la qolay-a. Yo bo'lmasam qandaydir damlama yaratingda, meni qanday odam bo'lishimni xohlasangiz o'shanday odamga aylantiring, ho'pmi. Ha, shunday qilganingiz yaxshi. Aqlli bo'lib ketay,dostlarim ko'payib ketsin. Shunday damlama yarating.

ALBUS gapini tugatib,Chemodani ustida haykalday jim o'tirgan SKORPIUS tomon yugurdi.

Skorpius... Skorpius... yaxshimisan, nega jimsan ?

SKORPIUS hech nima demadi. Albus uning ko'ziga qarab gap nima to'g'risida ekanligi tushuna boshladi. ?

Oying... oying o'zini yomon his qilyaptimi ?

SKORPIUS: Ha, o'zini yomon his qilmoqdalar.

ALBUS, SKORPIUSNING yoniga o'tirdi.

ALBUS: Sen menga boyqushdan xat jo'natishing kerak edi.

SKORPIUS: Qanday qilib aytishini bilmasdim?

ALBUS: Qanday bo'lmasin aytishing kerak edi.

SKORPIUS: Iltimos bu haqida gaplashmaylik.

ALBUS: Ho'p mayli.

SKORPIUS: Albus sen meni eng yaxshi do'stimsan.

Yana Xogvarsning Katta zaliga qaytamiz. Markazda SARALOVCHI SHLAPA paydo bo'ldi.

SARALOVCHI SHLAPA:

Bazilar gapimni eshitishni hohlamas,

Men aytgan fakultetda o'qishni istamas.

Slizerin emas ! Griffindor emas !

Ravenklo emas ! Xufflpuf emas !

Deya qayrab olar tishin,

Lek tushunmas shlapa,

Ustasidir o'z ishin.

Lili Potter. Griffindor.

LILI: Qoyil.

ALBUS: Ha, zo'r bo'ldi !

SKORPIUS: Sen uni bizga qo'shiladi deb o'ylaganmiding. Potterlar Slizerinda hech o'qimagan.

ALBUS: Ha albatta, mendan tashqari.

U stol atrofida ovqatlanayotgan o'quvchilarga qo'shildi. Hamma uni ustidan kula boshladi. U hammaga qarab chiqdi.

Agar menda tanlash imkoniyati bo'lganda men Garri Potterni og'li bo'lishni tanlamagan bo'lar edim.

## Beshinchchi parda

### **Sehrgarlik Vazirligi, Garrining offisi**

Betartib bo'lib ketgan Garrining offisida, Germiona bir uyum qog'oz yoniga o'tirib ularni saralab taxlamoqda. Yuzi tilinib qonayotgan Garri offisiga shoshibil kirib keldi.

GERMIONA: Xo'sh nima bo'ldi ?

GARRI: Barcha malumotlar to'g'ri ekan.

GERMIONA: Teodor Nott ?

GARRI: To'xtatib qolindi.

GERMIONA: Vaqt chig'irig'i?

GARRI qo'lida yarqirab, odamni o'ziga rom qiladigan vaqt aylanasini ko'rsatdi.

Bu haqiqiy vaqt aylanasimi ? Ishlayaptimi ? Bu bilan keljakka borsa bo'ladimi ?

GARRI : Hozircha aniq malumotlarga ega emasmiz. Men buni o'sha yerda tekshirib ko'rmoqchi edim. Lekin offisga olib kelganim yaxshiroq deb o'yladim.

GERMIONA: Shunday qilib, Vaqt aylanasi bizning qo'limizda.

GARRI: Seningcha buni offisda qoldirgan maqulmi?

GERMIONA: Boshqa ilojimiz yo'q. Bu Vaqt aylanasi men avval ko'rgan Vaqt aylanasiga o'xshamas ekan.

GARRI: (Quruqqina qilib) Yoshligimizda boshqacha ko'ringan, oradan qancha vaqt o'tdi.

GERMIONA: Yuzing qon bo'libdi.

GARRI yuzini oynaga tutib, ridosining cho'ntagidan sehrli tayoqchasini oldi.

Havotir oladigan joyi yo'q , shunchaki chandiq bo'lib qoladi.

GARRI: (Kulib qo'yib) Meni offisimda nima qilyapsan ?

GERMIONA: Teodor Nott haqidagi gaplarni eshitib havotirga tusha boshladim. Keyin senga berilgan ishni qanday bajarayotganligingni tekshirib ko'rmoqchi bo'ldim. Ko'rib turganingdek katta qog'oz uyumiga duch keldim.

GARRI: Tegma, joyida qolsin. Hali tugallanmagan ishlarim bor.

GERMIONA: Yo'q , buqada ishingni hech qachon tugata olmaysan. Qanday qilib bunday betartib xonada ishslash mumkin ?

Garri sehrli tayoqchsini silkitdi, shu zahoti qo'g'ozlar papkaga joylanib bir tekisda

joy joyiga taxlandi.

GARRI: (Kulib) Bo'ldi, huddi avval betartib bo'limganday.

GARRI: Bu qog'ozlarda nima yozilganligiga qiziqib ham ko'rmaysan, qara men tog' trollarining Vengriyaga ketishayotganida topilgan jasadlari. Belida qanotga o'xshash tatuirovkasi bor devlarning Gretsiya dengizida aylanib ortga qaytishayotganda sohil bo'yida g'oyib bo'lganligi haqida malumotlar bor.

GARRI: Yaxshi, uyga borib ozgina dam olay, keyin bu ishlar bilan shug'ullanaman.

GERMIONA: Garri seni yaxshi tushunaman. Qog'ozbozlik ishlari juda zerikarli ish.

GARRI: Sen uchun qog'ozbozlik qiyin ish emasku o'rninga o'zing qog'ozbozlik qilaver.

GERMIONA: Ishlarim o'zimga yetarli. Bilasanmi, Buyuk afsunganlar urushida, ko'pchilik odamlar Voldemort tomonda bo'lib, o'lim domiga tortuvchilar qatoriga qo'shilishgan. Agar biz Teodor Nottdan olgan malumotlarni bu ish bilan taqqoslab tekshirib chiqsak nima bo'layotganligini tushinishimiz mumkin. Agar Sehrgarlik tartibotini taminlash bo'limi boshlig'i hujjatlariga bee'tibor bo'laversa...

GARRI: Men senga o'xshab qog'ozlarga ko'milib o'tirmayman. Teodor Nott va Vaqt aylanasini shu hujjatlarsiz, tergov surishtiruv ishlari orqali topdim. Sen menga aql o'rgataverma.

GERMIONA: Iris qand hohlaysanmi ? Faqat Ronga bu haqda aytma ?

GARRI: O'zing bu mavzuni ochib, endi o'zgartirmoqchimisan ?

GERMIONA: Ha albatta. Iris qand yeysanmi ?

GARRI: Yo'q, hozir shirinlikxo'rlik qiladigan payt emas

Oraga biroz jimlik cho'kdi.

O'zing bilasan shirinlik yesang, o'zingni tutolmay yana yeging kelaveradi.

GERMIONA: O'zing bilasan ota onam stomatolog bo'lishgan, yoshligimda

shirinlikka to'ymaganman. To'g'ri qirq yoshga yetdik... hay mayli... Sen ajoyib ish qilding. Men senga aql o'rgatmoqchi emasman. Shunchaki bo'sh vaqtlarida bu hujatlarga ham ko'z yogurtirib qo'y demoqchiman.

Garri kulib qo'ydi.

xotinning va bolalaring qalay yaxshi yurishibdimi. ?

GARRI: Qog'oz-u hujatlarga beetibor bo'lganimday tarbiya borasida ham no'noqroqman. Mayli qo'yaver. O'zingda nima gap, bolalaring Roza va Xyugoning ishlari qalay ?

GERMIONA: (Kulib) Hammasi yaxshi faqat Ron meni vazitlikdagi kotib Eteldan rashk qilyapti nima emish men undan ko'z uza olmas ekanman.

Bilasanmi Garri, to'g'rimizda faqat ikki yo'l turadi bazida faqat bir yo'lni tanlashamizga to'g'ri keladi. Bular eng yaxshi ota-onada bo'lish va vazirlikdagi eng yaxshi xodim bo'lish. Mayli Garri uyinga bora qol "Xogvars ekspresi tez orada jo'naydi bolalaringni kuzatib qo'y... vaqt ni bekor o'tkazma shoshil !

GARRI: Sen rostdan ham bu voqealar bir biriga bo'g'liq deb o'ylaysanmi ?

GERMIONA: Qaydam, bog'liq bo'lsa kerak bo'lmasa boshqa yo'li topilar ?

U kulib iris qanddan og'ziga soladida ofisdan chiqib ketadi.

GARRI offisida yolg'iz o'zi qoldi. sumkasini olib ofisdan chiqib koridorda yolagiga chiqdi. U juda charchab yelkasidagi og'irlikni his qilardi. U charchagan holda TELEFON BUTKASIGA boradi va 62442 raqmini teradi.

TELEFON BUTKASI: Ko'rishguncha, Garri Potter.

GARRI sehrgarlik vazrligi idorasidan chiqib uyi tomon yo'l oladi.

## **Oltinchi Parda**

### **Garri va Jinna Potterlarning uyi.**

Albus uxlay olmadi. U zinaning tepa qismida o'tirib, pastki qavatdagi GARRI va

nogironlar aravachasida o'tirgan AMOS DIGGORINING suhbatini eshitib o'tirardi.

GARRI: Tushinaman, Amos lekin meni ham to'g'ri tushining ishlarim ko'p edi.

AMOS: Men vazirlikdagi odamlar bilan uchrashdim. Ular bunday javob berishdi: Eh, Janob Diggori mayli harakat qilamiz, ikki oydan keyin keling javobini aytamiz

GARRI: Shunchalik muhim ishingiz bormi yarim kechasi kelibsiz. Men ertaga bolalarimni maktabga kuzatib qo'yishim kerak.

AMOS: Ikki oy o'tgandan so'ng xat oldim. Janob Diggori , Vazirlik xodimi Potter muhim ish bilan bilan chaqirtirilganligi sababli sizdan uzr so'rab uchrashiuvni ikk oyla kechiktirishga majburmiz. Ikki oydan so'ng yana va yana shu ahvol takrorlanaverdi. Siz meni mesimayapsizmi ?

GARRI: Yo'q albatta. Men qo'qamanki sehrgarlik qonunlarini tatbiq etish bo'limi boshlig'iga yuklatilgan vazifalarni...

AMOS: yuklatilgan masuliyatni a'lo darajada bajaryapsiz.

GARRI: Kechirasiz ?

AMOS: Garri, o'g'lim Sedrikni yaxshi eslasang kerak ?

GARRIGA sedrik haqida eslash og'ir kechdi.

GARRI: Ha albatta. O'g'lingizni yaxshi eslayman. U ajoyib inson edi.

AMOS: Voldemortga sen kerak eding meni o'g'lim emas ! O'zing aytgansan u nima deganini. Nomatlubni o'ldir, Nomatlubni.

GARRI: Janob. Diggori men uning xotirasi uchun qo'limdan kelgancha yordam beraman. Kerak bo'lsa uning haykalini qo'yishga ham tayyorman.

AMOS: Haykal ? Menga hech qanday haykal-paylkalni keragi yo'q. Men qari odam bo'lsam. Tez orada bu dunyoni tark etaman. Iltimos, o'g'limni qaytar o'tinib so'rayman .

GARRI (hayratlanib) Amos, nimalar deyapsiz, buni iloji yo'q.

AMOS: Vazirlikda vaqt aylanasi bor, to'g'rimi ?

GARRI: Barcha vaqt aylanalari yo'q qilingan

AMOS: Men Teodor Nott ismli shaxsdan maxfiy vaqt aylanasi topilganligi haqida turli mish-mishlarni eshitib, shu yerga keldim. Iltimos, Vaqt aylanasidan foydalanishimga ruxsat ber. O'g'limni qaytarishimga ruxsat izn ber.

Oraga uzoq va og'ir sukunat cho'mdi. GARRI biror nima deyishga qiynalardi. ALBUS ularni yaxshi ko'rib-eshitib turish uchun yaqinroq o'tirib oldi.

GARRI: Vaqt bilan o'ynashish. Amos, biz bunday qilolmaymiz

AMOS: Bu bola omon qolishi uchun qancha odam jon berishdi. Men faqat sendan ulardan bittasini qaytarishingni so'rayapman.

GARRIGA bu so'zlar og'ir botdi. U o'ylanib-jahllanib borardi.

GARRI: Teodor Nott haqidagi bemani gaplarni menga hech qanday ahamiyati yo'q. Meni kechiring afsusdaman.

DELFI: Salom !

ALBUS qo'rqib ketganidan sakrab yuborayozdi. Uning ro'parasida zinapoyaning pastki pog'onasida yigirma yoshlar atrofidagi bir qiz unga qarab turardi.

Kechirasen men seni qo'rkitmoqchi emasdim. Avvallari men ham zinapoyada o'tirib, Pastgi qavatdagi qiziqarli gaplarni eshitishni yaxshi ko'rardim.

ALBUS: Sen kimsan ? Bu meni uyim, bu yerda nima...

DELFI: Men o'g'riman, hamma narsangni o'g'irlamoqchiman qani pullaringni, sehrli tayoqchangni va shokobaqalaringni chiqar.

U qattiy ohangda qarardi keyin esa jilmaydi.

Hazil. Men Delfini Diggori bo'laman. (U zinadan ko'tarilib salomlashish uchun qo'lini uzatdi.) Qisqacha qilib: Delfi. Men Amosning nazoratchisi bo'laman hamma ishda unga yordam beraman. Sen o'zing kimsan ?

ALBUS: (Mayus kulib) Albus.

DELFI: Ha albatta Albus Potter. Garri Potterning o'g'li bo'lish ajoyib bo'lsa kerak a ?

ALBUS: Unchalik emas.

DELFI: Uzr, noo'rin gapirib qo'ydim shekilli. ? Maktabdagi bolalar ham meni vaysaqi, vaysamagan kuni yo'q deyishardi.

ALBUS: Menda ham shunga o'xshash xolat.

Qiz unga diqqat bilan qarardi.

AMOS: Delfi.

DELFI ketmoqchi bo'lib turgan edi lekin to'satdan to'xtab, Albusga kulib qaradi.

DELFI: Biz kimga qarindoshligiga qarab munosabat bildirmaymiz. Amos meni amakim. Men u tufayli Apper Fledjlida ishlayman. Tog'ri Bir joyga mixlanib qolgan odam bilan yashash qiyin shunday emsmi ?

AMOS: Delfi, Qayerdasan ?

ALBUS: Apper Fledjli ?

DELFI: Muqaddas Osvald nomidagi Qariya sehrgar va Jodugarlar uyi. Ko'rgani kel agar hohlasang.

DELFI kulib zinadan qoqilib pastga tushdi. Keyin Garri va Amos o'tirgan xonaga kirdi. Albus uning qarab qoldi.

DELFI: Labbay amaki chaqirtingizmi

AMOS: Vazirlikning yagona va takrorlanmas xodimi toshbag'ir Garri Potteni ko'rib qo'y. Tinchlikni istasangiz men sizni tinch qo'yaman. Delfi aravamni...

DELFI: Ho'p bo'ladi amaki.

DELFI, AMOSNI xonadan olib chiqib ketdi.

GARRI tushkun axvolda xonada yolg'iz qoladi. ALBUS unga qarab o'ylanib qoladi.

## **Yettinchi pardá**

## **Garri va Jinna Potterlarning uyi. Albusning xonasi.**

Albus o'z xonasidagi yotog'ida o'tirardi. Eshik ortida esa vaqt navbatma navbat bir meyorda o'tardi. Albus tashqaridagi yugu yugurlarga e'tibor qilmay, joyidan qilt etmasdan o'tirardi. Uzoqdan Jeymsning baqirishi eshitilardi.

JINNA: Jeyms, iltimos unut shu sochingni, undan ko'ra to'zg'ib yotgan xonangdan bir xabar olib yig'ishririb qo'y.

Albusning xonasiga orqasiga chiroyl

JEYMS: Qanday qilib unutaman ular pushti rang bo'lib qoldiku. Ko'rinnmas plashimdan foydalanaman endi.

JINNA: Dadang senga plashni buning uchun bermagan.

LILI: Hech kim sehrli damlamalar tayyorlash kitobimni ko'rmadimi.

JINNA: Lili, buni ertaga maktabga kiyib borishni hayolinga ham keltirma.

ALBUSNING xonasiga LILI kirib keldai. U orqasida chiroyli qanotj bor kiyim kiyib olgan bo'ladi.

LILI: Ajoyib-a. Farishtaga o'xshadimmi?

U xonadan chiqib ketishi bilan Eshik oldida GARRIko'rindi. U ALBUSNING xonasini ko'zdan kechirib chiqdi.

GARRI: Salom.

GARRI xonaga kiradi oraga jimlik cho'kadi. Eshik oldida Jinna paydo bo'ladi. U GARRI va ALBUNI kuzatib turadi.

Men maktabga borishingdan oldin avval senga sovg'a to'g'rirog'i sovg'alar olib keldim. Ron senga buni jo'natibdi.

ALBUS: Sevgi damlamasi. Ha, yaxshi

GARRI: Menimcha u yana hazil qilyapti. Liliga bir uyum gnom, Jeymsga esa taroq jo'natibdi. Bu taroqdan Jeymsbing sochi pushti rang kasb etdi. Ronni o'ziing bilasanku hazilkash.

GARRI, damlamani Albusning yotog'iga qo'yadi.

Bu sovg'a esa... mendan...

GARRI, ALBUSGA kichkina ko'rpa uzatadi.

JINNA eshik oldidan nari ketadi.

ALBUS: Eski ko'rpa ?

GARRI: Senga qanday sovg'a berishni uzoq o'yladim. Jeymsga ko'rinnmas plash nasib qildi. Liliga esa qanotchalar yoqishini bilardim... Lekin senga... Sen 14 yoshga to'lging. Sen uchun o'zgacha sovg'a tanladim. Bu ko'rpa onamdan qolgan yagona buyum. Men bu ko'rpgaga o'ranib Dursllarning pillapoya ostidagi bufetida uxlardim. Keyin men uni yo'qotib qo'ygan edim. Lekin Petuniya Xolaning vafotidan so'ng Dudli uning buyumlari orasidan buni topib olib, iltifot bilan menga jo'natibdi. Men doim bu ko'rpani quchib baxtli bo'lishni niyat qilardim... Balki sen ham...

ALBUS: Aytmoqchisizki bu menga yordam beradi. Yaxshi aytganingizday qilaman Qani ko'raylikchi omadim yurishib ketarmikin.

U ko'rpani ushlaydi.

Hech narsa bo'lindi. Yaxshisi buni o'zingizga olib qo'ying.

GARRI: Menimcha Petunya xolam ko'rpani topib olib. Uni menga qaytarish uchun saqlab qo'ygan. Men esa buni senga bermoqchiman. Men onamni yaxshi bilmayman lekin menimcha onam buni senga bergan bo'lardi. Xotira kuni arafasida seni u yerga olib borishim mumkin. Ular kechasi vafot etoshganda men ular bilan birga edim.

ALBUS: Gapimni eshititing, men hozir narsalarimni yig'ishtirishim kerak. Sizni esa vazirlikda ishlaringiz ko'p shuning uchun...

GARRI: ;Bu ko'rpani olishing kerak.

ALBUS: Men buni nima qilaman ? Qanotchablarni ham, Ko'rinnmas plashni ham tushunsa bo'ladi. Lekin buni... Jiddiy gapiryapsizmi ?

Bu gapdan GARRINING ko'ngli biroz hijil bo'ladi. U o'g'liga umdvor bo'lib

qaraydi.

GARRI: Narsalarin ni yig'ishtirishga yordamlashib yuboraymi. Menga doim bu ish yoqqan chunki men "Odamovilar" ko'chasidan ketib Xogvarsiga qaytardim, o'shanda ... bilaman bu ish senga yoqmaydi. Lekin u yer...

ALBUS: Sen uchun dunyodagi eng yaxshi joy. Dursllar oilasi, Bechora yetim bolaga rosa tazyiq o'tkazgan ekan.

GARRI: Albus... iltimos ...

ALBUS: Jarohatlangan Dudli. Xogvarsni qutqarish . hammasini eshitganman, dada.

GARRI: Bu gaplaring bilan bilan nima demoqchisan ?

ALBUS: Hammamizni qutgargan yetim bola. Butun sehrgarli jamiyati nomidan senga qanday qilib o'z minnatdorchiligmizni bildirishimiz mumkin ? Bosh egaylikmi yoki tiz cho'kaylikmi ?

GARRI: Menga hech qachon hech qanday minnatdorchilikni keragi bo'lмаган.

ALBUS: Lekin hozir men , mana bu mog'or bosgan ko'rpani menga topshiryotganiga hayronman.

GARRI: Mog'or bosgan ?

ALBUS: Biz doim quchoqlashganimizda va men sizga yaxshi ko'rishimni aytganimda, nima deb o'ylaysiz nima yuz beradi ? Nima ? Nima?

GARRI: (O'zini bosib olib) Bilasanmi seni baxtsiz hayoting jonimga tegdi. Seni otang bor. Meni esa otam ham bo'lмаган, tushunyapsanmi ?

ALBUS: Sizningcha bu men baxtsiz bo'lishni...

GARRI: Nima meni o'lishimni hohlaysanmi ?

ALBUS: Yo'q, shunchaki siz meni otam bo'lishingiznin hohlamayman

GARRI: (Jahllanib) Unday bo'lsa sen ham meni o'g'lim bo'lishingni istamayman. Oraga jimlik cho'kdi. ALBUS boshini egadi. GARRI jahl ustida nima deganini tushuna boshlaydi.

Kechirasdan, bunday demoqchi emasdim.

ALBUS: Lekin shunday dedingiz

GARRI: Albus nega bunday qilyapsan ?

ALBUS: Ikkimizning fikrimiz bir ekan, men sizni hech nimada ayblayotganim yo'q .

Oraga ozgina jimlik cho'kadi.

Hozir meni tinch qo'ying

GARRI: Albus iltimos...

ALBUS qo'liga ko'rpani olib uloqtirdi. Ko'rpa RONNING sevgi damlamasi ustiga tushib kravot va ko'rpara tutunli suyuqlik to'kildi.

ALBUS: Shunday qilib menga na omad van a baxt kulib boqdi.

ALBUS xonasidan chiqib ketadi.  
Garri uning ortidan yuguradi.  
GARRI: Albus... Iltimos...

## Sakkizinchi Parda

### Tush, Qoya ustidagi kulba

Kuchli gumburlash va qasr-qusr ovozi eshitiladi. Dudli Dursl, Petuniya xola va Vernon amaki kravot ostiga berkinib oladi.

DUDLI DURSL : Oyi, bu menga yoqmayapti.

PETUNIYA XOLA: Men bilaman biz xatoga yo'l qo'ydik. Yashirinishga joy yo'q. Yashirinishga joy yo'q . mayoq ham bizdan uzoqda.

Yana kuchli gumburlash ovozi eshitiladi.

VERNON AMAKI: Xavotir olmang. U bu yerga kirolmaydi.

PETUNIYA XOLA: Bizni la'natlashdi. Bola bizni la'natlatdi. (U YOSH GARRI tomon qaraydi) Buni hammasiga sen aybdorsan. Joyingdan jilma.

Vernon amaki qo'liga qurol olganida YOSH GARRI orqaga tisariladi.

VERNON AMAKI: Kim u ? Ogohlantirib qo'yay men quollanganman.

Yana bir bor kuchli gumburlash eshitilib eshik uzilib gumburlab yerga tushadi.

Buzilgan eshikning kirish joyida XAGRID turadi. U xonadagi odamlarga bir qarab chiqadi.

XAGRID: Itday charchaganman choy bering.

DUDLI DURSL: Buni qarang.

VERNON AMAKI: Orqaroq turing. Petuniya orqamga o't Dudli sen ham. Bu lanatini o'zim daf qilaman.

XAGRID: Lanatini ?

U VERNON AMAKINING qurolini qo'lidan shartta tortib oladi.

Bu qurolni ko'rмаганимга ancha bo'luvdi.

U qurolni qayirib tugib tashlaydi.

Ana bo'ldi.

Keyin YOSH GARRI tomon buriladi.

XAGRID: Seni oxirgi marta juda kichkinaligingda ko'rgan edim. Sen otanga o'xshaysan, ko'zlarining esa onangnikiga o'xshaydi.

YOSH GARRI: Siz meni ota-onamni tanisizmi ?

XAGRID: Ex, Sal qolsa esimdan chiqarayozibmana, tug'ilgan kuning bilan, Garri. Mana senga sovg'a. Sal ezilib qolgan bo'lsa kerak. Hech qisi yo'q, baribir juda mazali. U paltosining ichki cho'ntagidan ozgina ezilgan ustiga yashil yozuv bilan "Tug'ilgan kuning bilan, Garri" deb yozilgan Shokoladli tortni chiqaradi.

YOSH GARRI: Siz kimsiz ?

XAGRID:(KULIB) Darhaqiat, o'zimni tanishtirmabman. Rubeus Xagrid- Xogvars kalitlari qo'riqchisi va o'rmonchisi bo'laman.

Dursllar tomonga qaraydi.

Choy masalasi nima bo'ldi ? Ha, aytganday o'tkirroq ichimlik bo'lsa, yo'q demasdim.

YOSH GARRI: Xog... nima edi ?

XAGRID: Xogvars. Xogvars haqida eshitgansanku axir.

YOSH GARRI: Eee... yo'q eshitmaganman, uzr.

XAGRID: Nima ? Sen emas anavi nuxxalar uzur so'rashi kerak. Xo'p mayli, xatlar senga berilmadi, lekin Xogvarsdan bexabar bo'lib o'sishing, bunisi endi ortiqcha. O'zingchi, ota-onang o'z mahaortini qayerda o'qib o'rganishganini hech so'ramadingmi ?

YOSH GARRI: Mahorat ? Qanday mahorat ?

G'azabi qaynagan Xagrid, Vernon Amaki tomonga qaradi.

XAGRID: Buni qanday tushunish kerak ? Bu bola hech narsadan xabari yo'qmi ?

VERNON AMAKI: Bolaga bu haqda gapirishni taqiqlayman.

GARRI; Nima haqida ?

XAGRID,VERNON AMAKIGA qarab so'ng YOSH GARRIGA yuzlandi.

XAGRID: Garri... sen sehrgarsan. Sen dunyoni o'zgartirgan sehrgarsan. Bu yo'rug' olamdag'i eng mashhur sehrgarsan.

Shu payt Xonaning orqa qismidan juda tanish ovoz, Voldemortning shivirlashi eshitiladi.

GAAARRI POTTTTERR.

## To'qqizinchi parda

### Garri va Jinna Potterlarning uyi. Yotoqxona.

Garri uyg'onib ketadi. Qorong'u xonada entikib chuqur nafas oladi. Bir daqiqa chuqur nafas olib tinchlanadi. Keyin peshonasidagi chandig'ni og'rig'ni sezadi.

JINNA: Garri... Hammasi joyidami ?

GARRI: Hammasi yaxshi uhlawayver.

JINNA: Lyumos.

Xona, JINNANING sehrli tayoqchasidan chiqayotgan nурдан xona yorishadi.

Yomon tush ko'rdingmi ?

GARRI: Ha

JINNA: Nimani ko'rding.

GARRI: Dursllarni, keyin yana nimadir bor edi.

JINNA: Balki, uyqu damlamasidan ichib olarsan.

GARRI: Yo'q. Men yaxshiman uxlayver.

JINNA: Ko'rinishingdan bezovtaga o'xshaysan.

GARRI javob bermaydi.

Bu Amos Diggori bilan bog'liq emasmi ?

GARRI: U bilan gaplashdim. Tushuntirdim. Bir tarafdan uning gapi ham to'gri, Amos o'g'lini men tufayli yo'qotgan.

JINNA: Seningcha masala halmi ?

GARRI: Boshqa hech narsa demadim. Nima ham derdim ?

JINNA boshqa ishni nazarda tutadi.

JINNA: Nega bir-biringizga dilsiyohlik qilyapsiz ? Ertaga uni Xogvarsiga kuzatib qo'yishing kerakku. Hay mayli nima bo'lganda ham ko'rpani berganing yaxshi bo'ldi.

GARRI: Hammasi shu ko'rpadan boshlandi. Men u bilan xushmuomala bo'ldim...

JINNA: Eshitdim.

GARRI: Nega unda bu haqda gap ochding ?

JINNA: Bazida uni to'g'ri tushunib kechirim So'rashing kerak. U bilan doim samimiy suhbatta bo'l, demoqchiman.

GARRI: Men uni Lili va Jeymsga o'xshashini istardim.

JINNA: (quruqqina qilib) To'g'ri, u o'xshamaydi.

GARRI: Yo'q men uni o'zgarishini istamayman... Uni tushunaman... Lekin...

JINNA: Albus o'zgacha bola. U "Garri Potter" afsonasidagi Garrini emas, oddiy Garrini ko'rishni istaydi.

GARRI: Haqiqat- bu go'zal, shu bilan birgalikda xavfli narsadir. Shuning uchun bu narsa bilan ehtiyojkorona munosabatda bo'lmog'imiz darkor.

JINNA, Garriga hayrotomuz qaraydi.

degan ekan Damblor.

JINNA: Bolaga bunday deb bo'lmaydi.

GARRI: Bolaga ishonsang kerak bo'lsa, dunyoni qutqarish ucin jon berishga jam tayyor bo'ladi.

GARRI yana chuqur nafas olib hansiray boshlaydi. Peshonasini ushslashdan o'zini zo'rg'a tiyadi.

JINNA: Nima bo'ldi ?

GARRI: Hammasi joyida .

JINNA: Chandig'ing o'g'riyaptimi ?

GARRI: Yo'q, yo'q. Men yaxshiman yaxshisi chiroqni o'chir. Uxlaylik.

JINNA: Oxirgi marta qachon chandig'ing og'rigan edi.

GARRI: Yigirma ikki yil oldin.

## **O'ninchi Parda Xogvars Eksspress**

Albus poyezd yo'lagida tez yurib boradi.

ROZA: Albus, Men seni qidirib yurgan edim.

ALBUS: Qidirib yurgandim ? Nega ?

ROZA Aytmoqchi bo'l gangapini qanday tushintirishni bilmasdi.

ROZA: Albus, mana yangi to'rtinchi o'quv yili ham boshlanyapti. Lekin biz haliyam do'st emasmiz.

ALBUS: Biz hech qachon do'st bo'la olmaymiz.

ROZA: Nega bunchalar qo'polsan. Olti yoshligimda biz inoq do'st edik.

ALBUS: Eh-he oradan qancha vaqt o'tdi.

ALBUS ketmoqchi bo'lib turganida, ROZA uni bo'sh kupega tortqilaydi.

ROZA: Mish-mishlarni eshitdingmi?

ROZA: Vazirlik katta tekshirish ishlarini o'tkazibdi. Seni otang juda mard insonda.

ALBUS: Bu mish-mishlar qayerdan eshitib qo'ya qolasan. Hayronman.

ROZA: Bir sehrgar ustidan tekshiruv bo'libdi. Ismi Teodor Nott bo'lsa kerak. Undan sehrgarlik qonunida foydalanish taqiqlangan bir qator buyumlar bo'lgan. Jumladan Vaqt chig'irig'i ham.

ALBUS, ROZAGA tikilib qoladi.

ALBUS: Vaqt chig'irig'i ? Aytmoqchisan Otam vaqt chig'irig'ini topgan.

ROZA: Jim baqirma. Ha xuddi shunday. Ajoyib-a ?

ALBUS: Aminmisan?

ROZA: Albatta.

ALBUS: Endi Skorpiusni topishim kerak.

ALBUS, Poyezdnинг uzunasiga ketgan yo'lagi bo'y lab yuradi. ROZA yana bir gap aytish umidida uning ortidan ergashadi.

ROZA: Albus!

ALBUS keskin buriladi.

ALBUS: Kim senga men bilan gaplashishimga ruhsat berdi.

ROZA: (cho'chib ketib) Yaxshi. Oying meni dadamga xat yo'llabdi. Onang sendan havotirda ekan. Menimcha ...

ALBUS: Meni tinch qo'y.

SKORPIUS kupeda bir o'zi o'tirgan bo'ladi. Kupega Albus va uning ortidan ROZA kirib keladi.

SKORPIUS: Albus ! Oo salom, Roza. Senday ajoyib hid taralmoqda

ROZA: Qanday hid ?

SKORPIUS: Sendan turfa gullar va yangi uzilgan non isi kelmoqda.

ROZA: Men shu yerda bo'laman kerak bo'lsam chaqirarsan.

SKORPIUS: Xushbo'y, ajoyib non isi buni nimasi yomon.

ROZA bosh qimirlatib chiqib ketadi.

ROZA: To'gri buni nimasi yomon .

ALBUS: Men seni qidirib yurgan edim.

SKORPIUS: va nihoyat meni topding. Men yashirinmadim. o'zing bilasan ertaroq kelib kupega joylashish olsam, odamlar chaqchayib qarashmaydi. Baqirishmaydi Chamadonimga Voldemortning o'g'li deb yozishmaydi. Bu narsa hech urfdan chiqmadi. Nima deb o'ylaysan Rozaga yoqarmikanman ?

ALBUS do'stini bag'riga bosadi va shu zahoti qo'yib yuboradi.

SKORPIUS ajablanadi.

Yaxshi, salom... eee... Biz avval hech quchoqlashib ko'rishmadaniyat edik.

Bolalar biri biridan nari suriladi.

ALBUS: Shunchaki, oxirgi yigirma to'rt soat, juda g'alati o'tdi.

SKORPIUS: Xo'sh nima bo'ldi ?

ALBUS: Keyinroq tushuntirib beraman. Biz hozir poyezddan tushishimiz kerak.

Uzoqdan hushtak ovozi yangraydi. Poyezd joyidan siljiy boshlaydi.

SKORPIUS: Afsus, kechikdik Poyezd yura boshladi

ALBUS: Unda yurayotgan poyezddan tushishga majburmiz

SHIRINLIK SOTUVCHISI: Biron nima hohlaysizmi, bolakaylar ?

ALBUS Poyezd derazasini ochib chiqishga harakat qilib ko'radi.

SKORPIUS: Biz axir sehrli poyezddamiz.

SHIRINLIK SOTUVCHISI: Mana qovoqli pecheniylar, kotlokekslar...

SKORPIUS: Albus Severus o'zingni sal bosib ol. Nima gap o'zi ?

ALBUS: Senga savollarim bor, birinchisi Uch Afsungar musobaqasi haqida nimalarni bilasan ?

SKORPIUS: (kulib) Ooo ajoyib savol ! Uchta maktabdan eng jasur o'quvchilar, kubokni qo'lga kiritish uchun turli shart bo'yicha bir birlari bilan kuch sinashadilar. Eng yaxshi uchta afsungar championlikni qo'lga kiritadi.

ALBUS: Yaxshi, bilarkansan.

SKORPIUS: Albatta bilaman.

ALBUS: Ikkinchisi, Nima uchun uch afsungar musobaqasi Yigirma yildan buyon o'tkazilmayapti ?

SKORPIUS: Oxirgi marotaba bo'lган musobaqada, sening otang va Sedrik Diggori ismli yigit qatnashgan. Ular birga g'alaba qilishni istashgan lekin afsuski kubokni sehrlab Voldemort huzuriga olib boradigan portalga aylantirishgan. Sedrikni o'ldirishgan. Shu sababli Musobaqani to'xtatishgan.

ALBUS: Yaxshi, Uchinchisi. Sedrik o'lishi kerakmidi ? Yo'q albatta. Voldemort

nomatlubini o‘ldir degan. Nomatlubni. U otam tufayli halok bo‘lgan. Otam uni qutqara olmaydi, lekin biz uni qutqara olamiz. Bu xatoni tuzatamiz. Vaqt chig‘irig‘idan foydalanib uni ortga qaytaramiz.

SKORPIUS: Albus, Men vaqt chig‘irig‘im bo‘lishini orzu qiladiganlardan emasman...

ALBUS: Amos Diggori otamdan vaqt chig‘irig‘ini so‘raganda, otam uni mavjut emasligini aytgan. Otam, Shunchaki o‘z o‘g‘lini qaytishini istagan insonni aldagani. Uni nazar-pisand qilmagan. Aytish joizki otam juda ko‘p jiddiy xatolar qilgan.

Men bu xatolarni ayrimlarini to‘g‘rilashim kerak. Men Sedrikni qutqarishim kerak. SKORPIUS: Yoz bo‘yi oftobda yurib miyyang aynib qolibdi. Nima ham derdim men, sen bilanman.

ALBUS: Men bu ishni bajarmasam bo‘lmaydi. Sensiz bu ishni uddalay olmasligimni o‘zing ham tushunib turibsan. Qani bo‘lmasam, ketdik! U miyig‘da kulib qo‘yadi, Deraza ortiga o‘tib ko‘zdan yo‘qoladi. SKORPIUS biroz shubhalanadi, aftini burishtiradi. Keyin ALBUSHING izidan ergashadi.

## O‘n Birinchi Parda

### Xogvars Eksspressining tomi

Shamol guvillab quloqni qomatga keltiradi.

SKORPIUS: Ana, Poyezdning tomiga ham chiqib oldik. Juda tez va qo‘rquinchli ekan. Lekin ajoyib, O‘zimni boshqacha his qilmoqdamani.

ALBUS: Tez orada vodiy uzra o‘tgan ko‘priordan o‘tib Muqaddas Osvald nomidagi Qariya sehrgar va jodugarlar uyiga yaqinlashamiz.

SKORPIUS: Keyin nima bo‘ladi ? U yerda nima qilamiz ? o‘zimga kelolmayapman hayotimda birinchi marta bunaqa ishkal qilishim. Sen ham shunday to‘g‘rimi... Qoyil poyezd tomi mazza ekan... lekin hozir... iya.

SKORPIUS uzoqqa qarab ko‘zlariga ishonmay ketadi.

ALBUS: U yerga yaqin joyda ko‘l bor o‘sha yerga sakraymiz. Boshqa yo‘l bilan tushib bo‘lmaydi.

SKORPIUS: Albus, shirinlilar sotuvchisi.

ALBUS: Shu paytdayam kavshanging kelib qoldimi ?

SKORPIUS: Yo‘q, Shirinliklar sotuvchisi biz tomon yaqinlashib kelmoqda.

ALBUS: Yo‘g‘-e bo‘lishi mumkin emas. Biz poyezd tomidagi bo‘lsak.

SKORPIUS, ALBUSGA arabachasini yetaklab kelayotgan SHIRINLIKLER SOTUVCHISI tomonni ko‘rsatadi.

**SHIRINLIKlar SOTUVCHISI:** Biror nima hohlaysizmi, bolakaylor ?

Qovoqli pecheniylar, Shokobaqalar, Kotlokekslar...

**ALBUS:** Oh

**SHIRINLIKlar SOTUVCHISI:** Odamlar meni yaxshi bilishmaydi. Ular meni kotlokeksslarni sotib olishadi lekin hech menga e'tibor bermaydi. Ismingiz nima? deb so'ragan odamni eslay olmayman. Hech kim ismimni ham so'ramagan.

**ALBUS:** Ismingiz nima ?

**SHIRINLIKlar SOTUVCHISI:** Esimda yo'q. Faqat Xogvarsga jo'naydigan birinchi reys esimda, Ottelin Gembl ismli shaxs meni bu ishga taklif qilgan.

**SKORPIUS:** 190 yildan beri shu ish bilan shug'ullanyapsizmi ?

**SHIRINLIKlar SOTUVCHISI:** Bu qo'llar olti milliondan ortiq qovoqli pecheniylarni tayyorlagan. Men ularni mazzali qilib tayyorlayman lekin hech kim bularga pisand qilmaydi. Endi bularni boshqa narsaga o'zgartirish kerak.

U Qovoqli pecheniyni oladi va xuddi granata otganday uni uloqtiradi. Pecheniylar portlaydi.

Men shokobaqa tayyorlashni ham bilaman. Keyin men hech kimni belgilangan joyga yetib bormaguncha, tashqari chiqishiga yo'l qo'ymayman. Ba'zilar urinib ko'rishgan Sirius Blek va uning hamtovoqlari Fred va Jorj Uizlilar, lekin hech biri uddalay olmagan. **CHUNKI BU POYEZD QOCHOQLARNI YOQTIRMAYDI.** SHIRINLIKlar SOTUVCHISINING qo'lidan o'tkir uchli tig'lar paydo bo'ladi. Keyin kulib qaraydi.

Shuning uchun o'z joylaringizga qayatishingizni maslahat beraman.

**ALBUS:** Sen haq ekansan, Skorpius Poyezd haqiqatdan ham sehrli ekan.

**SKORPIUS:** Shu gapim to'g'ri ekanligidan afsusdaman.

**ALBUS:** Men ham haq ekanman. Poyezd vodiy uzra o'tgan ko'priordan o'tmoqda. Pastda ko'l bor. Sakrash vaqt yetdi.

**SKORPIUS:** Bu yomon fikr.

**ALBUS:** Balki... ( U o'ylaydi va boshqa yo'l yo'q ekanligini tushunadi) O'ylasga juda kech 3,2,1 Malieare !

Sakragan paytda sehrli so'zni aytadi.

**SKORPIUS:** Albus... Albus...

U do'stiga noumid qarab qoladi. Keyin utomon yaqinlashib kelayotgan

**SHIRINLIKlar SOTUVCHISIGA** qaraydi. Uning to'zg'igan sochlari shamolda hilpirab, Tig'lari yanada o'tkirlashadi.

Sizga qaramay qo'ya qolay. Siz Ajoyibsiz, Men do'stim bilan ketishim kerak.

U burnini jiyirib do'stining ortidan sakraydi.

Malliare !

## O‘n Ikkinci Parda

### Sehrgarlik Vazirligi. Oliy majlis zali.

Sahnada bir qator bir birlari bilan gap sotayotgan sehrgarlar turgan bo‘ladi. Ular nilan birga JINNA, DRAKO, RON turishadi. Oldinroqda sahna markazida GARRI va GERMIONA turadi.

GERMIONA: Tinchlik saqlansin! Tinchlaning ! Nima hammangizni sehrlab tinchitaymi ? ( U sehrli tayoqchasi yordamida sehrgarlar galasini tinchitadi) Yaxshi. Favqulotda Majlisimizga Xush kelibsiz, azizlar ,kelganimgizdan mammunman... Sehrgarlar Dunyosi ko‘p yillardan beri tinch- totuv hayot kechirmoqda, Xogvars uchun, Voldemort bilan jang qilganimizga ham 22 yil bo‘ldi. Va mammuniyat bilan aytal olamanki, bu voqeal hozirgi avlodlar orasida shunchaki afsona. Lekin ayni paytda. Garri.

GARRI: Voldemortga vafodor malaylar bir necha oy ilgari o‘zlarini ko‘rsata boshlashdi. Biz yevropa bo‘ylab aylanib yurgan trollar va dengizda suzayotgan devlarni ortga qaytayotganida... buni aytish menga o‘g‘ir lekin afsuski Biz ularni yo‘qotdik. Ular qayerga ketishayotganligi yoki ularni kim majburlayotganligi haqida malumotlar yo‘q. Shuning uchun biz shu masalani aniqlab olishimiz kerak. Hech kim hech narsani ko‘rmadimi ? Biror bir malumot yo‘qmi? Biror bir shubhali hodisa bo‘lgan bo‘lsa tayoqchangizni ko‘taring.

PROFFESSOR MAKGONAGAL: Menimcha kimdir damlama tayyorlash uchun ishlatiladigan masalliqlarga qiron keltiryapti. Yozgi ta‘til o‘tib maktabga qaytib kelganimizda masalliqlarning katta qismi g‘oyib bo‘libdi. Bumslang terisi, uchar qanotchalar hech biri yo‘q.

GERMIONA: Rahmat Proffessor bu ishni ham albatta tekshiramiz.(Atrofga qarab chiqadi) Boshqa hech kim yo‘qmi ? Mayli, Yana bir qayg‘uli xabar Garrining chandig‘i og‘riy boshladidi. Bilasizlar uning chandig‘i faqat Voldemort yaqinlashsa og‘rir edi.

DRAKO: Voldemort o‘lgan. Voldemort endi yo‘q.

GERMIONA: To‘g‘ri lekin ko‘p dalillar unga borib taqalyapti. U qaytgan yoki bir qismi qaytgan bo‘lishi mumkin.

Odamlar shivir-shivir qila boshlashadi.

GARRI: Biz aniq malumotlarga ega emasmiz. Lekin bunga aniqlik kiritamiz... Hech kim Hech kim hech narsani sezmadimi ? Qora joduni his qilmadimi ?

DRAKO: Nima endi Qora jodu haqidagi bemanli gaplarining ishonishimiz kerakmi,

Potter ?

GERMIONA: Yo‘q Drako, Garri Boshqa buni nazarda tutmayapti.

DRAKO: Bilasizlarmi, Nima uchun Garri odamlarni yi‘g‘ib bu gaplarni aytyapti ? Chunki U yana gazeta sahifalariga qaytishni hohlayapti. Voldemort qaytyapti degan mish-mishlarni tarqatyapti.

GARRI: Bu mish-mishlarga meni hech qanday aloqam yo‘q.

DRAKO: Rostdanmi ? Xotining gazetada kunlik bashoratlar sahifasida ishlaydimi ?

JINNA u tomon qahr bilan qadam tashlaydi.

JINNA: Men sport sahifasida ishlayman.

GERMIONA: Drako, biz vazirlikni hushyorlikka chorlamoqdamiz.

DRAKO: Sen vazirman deb kerilaverma. Sen saylovda uning do‘sti bo‘lganining uchun yutib chiqqansan.

RON, JINNANI To‘xtatib, DRAKOGA yuzlanadi.

RON: Jag‘ing sinishini istayapsanmi Drako ?

DRAKO: Ko‘rib qo‘ying siz eozlaydigan Potter hammamizni ustumizdan kulib laqillatmoqchi. ( GARRIGA taqlid qiladi) " voy chandig‘im og‘riyapti, chandig‘im og‘riyapti. " Blasizlarmi uning barcha bemani gaplarida meni o‘g‘limni nazarda tutyapti.

GARRI: Hech kim seni o‘gling, Skorpius haqida hech narsa deyayotgani yo‘q.

DRAKO: Bu bemani majlisingiz o‘zingizga buyursin men, ketdim.

U ketadi, qolganlar ham uning ortidan chiqib keta boshlashadi.

GERMIONA: Yo‘q, to‘xtanglar majlisimiz hali tugamadi. Qaytinglar.

## **O‘n uchinchi parda**

### **Muqaddas Osvald nomidagi Qariya sehrgar va Jodugarlar uyi.**

Bu Uyni ta'riflashga til ojiz. Hamma yer chiroyli sehrli.

Mo‘yna kiyib olgan farroshlar xonani larzaga keltirib tango raqsiga tushishardi.

Bu yerdagi odamlar ba‘zi sabablarga ko‘ra sehr jodu qilishdan mahrum qilingan.

Bu yerdagi odamlarning qiladigan ishi faqat vaqtি cho‘g‘likdir.

ALBUS va SKORPIUS buyerga kirib atrofga alanglashadi. Ular uyalib biroz qo‘rqishadi.

ALBUS va SKORPIUS: Eee... Kechirasiz...Kechirasiz...

SKORPIUS: Juda g‘alati joy ekan.

ALBUS: Biz Amos Diggorini yoniga kelgan edik.

Oraga jimlik cho'kadi. Hamma birdaniga tinchib qoladi.

MO‘YNALI AYOL: Bu g‘am to‘la, qariyalar uyida nima qilayapsizlar.

Shu payt jilmayib DELFI paydo bo‘ladi.

DELFI: Albus, Albus Keldingmi ? Kelganing juda yaxshi bo‘ldi. Kel, Amos bilan ko‘rish.

## **O‘n to‘rtinchi parda**

### **Muqaddas Osvald nomidagi Qariya sehrgar va Jodugarlar uyi.**

#### **Amosning xonasi.**

AMOS qarshisida turgan SKORPIUS va ALBUSGA asabiy qarab turadi. Delfi uchchoviga ham qarab turardi.

AMOS: Keling aniqlik kiritib olaylik. Sen eshitishing kerak bo‘lmagan suhbatni eshitgansan va shoshqoloqlik qilib, o‘zingga yot bo‘lga ishga burin suqqansan.

ALBUS: Otam sizni aldagan. Otamda vaqt chig'irig'i bor.

AMOS: Bilaman ketishim uchun meni aldagan. Balki sizlar ham ketarsizlar.

ALBUS: Nima ? Yo‘q biz sizga yordam bergani keldik.

AMOS: Yordam? Bu churvaqalar menga yordam berarmish.

ALBUS: Otam menga: Dunyoni o‘zgartirish uchun voyaga yetish shart emas degan.

AMOS: Nima endi Potter bo‘lganining uchun menga yordam bermoqchimisan ? Seni familiyang mashhurku axir.

ALBUS: Yo‘q

AMOS: Slizerinda o‘qiydigan Potter. Men sen haqingda o‘qigan edim. Malfoy bu yerda nima qilyapti ? Balki u Voldemortning o‘g‘lidir. Kim bilsin balki sizlar Qora joduga aloqangiz bordir.

ALBUS: Yo‘q...

AMOS: Lekin bir gaping to‘g‘ri, otang menga yolg‘on gapirdi. Ana endi, sheringing bilan bu yerdan keting, vaqtimni olmang

ALBUS: Yo‘q. Gapimni quloq soling, Shaxsan o‘zingiz aytgansiz, otamni qo‘li qonga botgan deb. Men bu xatoni tuzatmoqchiman. Menga ishoning.

AMOS: (Ovozini ko‘taradi) Gapimni eshitmadingmi ? Senga ishonishimga biror bir sabab yo‘q. O‘zim seni haydamasimdan, tuyog‘ingni shiqillat.

U qo‘liga tayoqchasini oladi. ALBUS tayoqchani ko‘rib shashti susayadi. AMOS tayoqchasi bilan uni uradi.

SKORPIUS: Yur o‘gayni, hammasi joyidaligida juftakni rostlaylik.

ALBUS ketgisi kelmaydi. SKORPIUS uni tortqilaydi. Ular o‘girilib keta boshlaydi.

DELFI: Menda ularga ishonishingiz uchun sabab bor, Amaki.

Ular to‘xtashadi.

Bu bolalar juda dovyurak ekan. Ular shu yergacha kelishibdimi , demak ularning niyyati jiddiy. Ular o‘g‘lingizni qaytarish uchun o‘z xayotini xavf ostiga qo‘yishmoqda. Men aminman, ular bu ishni uddalashadi.

AMOS: Bu ish Sedrik bilan...

DELFI: Bu haqda Xogvarsdagilarga aytmasngiz yaxshi bo‘lardi.

DELFI amakisining boshidan o‘pib qo‘yadi.

AMOS, DELFIGA qarab so‘ng bolalar tomon o‘giriladi.

AMOS: Nima uchun o‘z xayotingizni xavf ostiga qo‘ymoqdasiz ? Bundan sizga nima naf ?

ALBUS: Bilaman, bu ish xavfli. Lekin o‘g‘lingiz bunday o‘limga noloyiq. Biz sizga uni ortga qaytarishga yordam. beramiz.

AMOS: (Tinchlanib) O‘g‘lim zo‘r yigit edi. Siz haqsiz, bu adolatsizlik. Agar qaroringiz qat’iy bo‘lsa...

ALBUS: Qat‘iy.

AMOS: Bu juda xavfli.

ALBUS: Bilamiz.

SKORPIUS: Bilamiz ?

AMOS: Delfi, Ularga yordam berasanmi ?

DELFI: Agar shu sizni hursand qilsa, jonim bilan.

U ALBUSGA kulib qaraydi. Bunga javoban ALBUS ham kuladi.

AMOS: Tushunyapsizmi ? Vaqt chig‘irig‘ sizlarni turli xavf xatarlarga yo‘liqturadi.

ALBUS: Biz har qanday xavf xatarga tayyormiz.

SKORPIUS: Tayyormiz ?

AMOS: (Jiddiy ohangda) Umid qilamanki bu ishni uddalaysiz.

## O‘n Beshinchi Parda

### **Garri va Jinna Potterlarning uyi. Oshxona.**

GARRI, RON, GERMIONA, va JINNA bir stolda o‘tirishib, ovqatlanishadi.

GERMIONA: Men, Vazirlikda hech kim o‘g‘ling Skorpius haqida hech qanday gap so‘z qilishmadi deb Drakoga qayta- qayta tushintirsam ham, hech tushunmaydi.

JINNA: Astoriya vafotidan so‘ng men unga biror bir yordam kerak emasmikin deb xat yozgan edim. Shuningdek Albus va Skorpius inoq do‘s, rojdestvo ta‘tilini bir qismini biznikida o‘tkazsin deb yozgan edim. Keyin boyqush bitta qisqa jumla yozilgan xat bilan qaytib keldi. Xatda: "Eringa aytib qo‘y o‘g‘lim haqidagi asossiz da‘volarini isbotlab bersin.

GERMIONA: Fikr-u hayoli faqat o‘g‘li haqidagi gap-so‘zlarda

JINNA: Miyyasi aynib qolibdi.

RON: To‘g‘ri uning boshiga ko‘p tashvish tushib, ko‘p narsasini yo‘qotdi. Lekin Germionaga dag‘dag‘a qilgan paytda... Shunday qilib... (u Garriga qaraydi) Men doim ta‘kidlaganimdek, bu paytda og‘izni ochib,burning oqib turishingdan hech qanday ma‘no yo‘q.

GERMIONA: Hoy ?

RON: Menimcha, Trollar bayramga ketishgan. Devlar esa to‘yga. Albusdan tashvishlanayotganing sababli yomon tushlar ko‘ryapsan. Chandig‘ing esa qartayib qolganing uchun og‘riyotgan bo‘lishi mumkin.

GARRI: Qartayib qolganing uchun ?

RON: Rostdan. Bilasanmi, men ham har safar o'tirganimda "uuuxx" deb yuboryapman. Tovonlarimda ham muamomlar bor. Ular menga shunchalik azob beradiki, bu azobdan qo'shiq yozib yuboraman. Bu xolat seni chandig'ingda gam kuzatilmoque.

JINNA: Juda ko'p gapirasanda.

RON: Bu meni o'ziga xosligimdan dalolat. Bu va ovqatdan voz kechmasligim meni ajoyib hususiyatimdir. Qiltiriq Jinnadan tashqari hammangizni sevaman.

JINNA: O'zingni odobli tutmasang, oyimga aytib beraman.

RON: Aytmaysan.

GERMIONA: Voldemortning qandaydir qismi tirik qolgan bo'lishi mumkin, Biz har qanday vaziyatga tayyor turishimiz darkor. Lekin men qo'rqtyapman.

JINNA: Men ham.

RON: Oyimdan boshqa hech kim meni qo'rqiqa olmaydi.

GERMIONA: Aytgandimku, Garri. Men Cornelius Fujdek bo'la olmayman. Lekin tuyaqushga o'xshab boshimni qumga suqadiganlardan emasman. Allaqanday Malfoydan g'am chekayotganim yo'q. U meni obro'yimga putur yetkaza olmaydi.

RON: Seni hech kim bir tiyinga olmaydi-ku. Obro'yimga putur yetkaza olmaydimish.

GERMIONA qahr to'la nigoh bilan RONGA qaraydi. Urishni mo'ljallab qo'l ko'taradi, RON shu zahoti Chap berib qoladi.

Tegmadi.

JINNA, RONGA bir musht tushiradi. Ron bu zarbadan esankirab qoladi. Zarba kuchli bo'lgan bo'ladi.

Shu payt Xonaga boshqush kirib, sekin pastlab uchib Garrining likopchasi ustiga xat tashlaydi.

GERMIONA: Hozir xat oladigan payt emasov, menimcha ?

GARRI xatni ochadi.

GARRI: Proffessor Makgonagaldan.

JINNA: Nima ekan ?

GARRINING yuzi o‘zgara boshlaydi.

GARRI: Albus... Albus va Skorpius maktabga kelishmabdi. Ular yo‘qolib qolishibdi.

## O‘n Oltinchi Parda

### Uaydxoll. Yerto‘la.

SKORPIUS bir ko‘zini qisib butilka ichidagi suyuqlikka qarardi.

SKORPIUS: Xo‘s, shunchaki buni ichsak bo‘ldimi ?

ALBUS: Senga O‘zgartiruvchi Damlama qanday hususiyatlarga ega ekanligini aytibo‘tay. Delfining Sharofati bilan bu damlamani ega bo‘ldik. Biz bu damlamadan foydalanib, Sehrgarlik Vazirligi idorasiga kirib olamiz.

SKORPIUS: Yaxshi, ikkita savol bor. Birinchisi: Og‘ritadimi ?

DELFI: Juda og‘riydi.

SKORPIUS: Rahmat, bilib qo‘ygan yaxshi. Ikkinchisi: Kimdir biladimi tami qanday ? Eshitishimcha baliqning tamiga o‘xsharmish. Rostadanam shunday bo‘lsa ko‘nglim aynib qusib yuborishim mumkin. Baliq men bilan kelishmaydi.

DELFI: Seni tushundik. (U bir ko‘tarishda damlamani ichadi) Baliqqa o‘xshamaydi. (u o‘zgara boshlaydi) Tami yomonmas, lekin hamma yerim o‘g‘riyapti (U baland ovozda kekiradi) Buni oling ( U yana kekiradi va GERMIONAGA aylanadi) Oxirida baliq qoldig‘ini ta‘mi sezilar ekan.

ALBUS: Qoyilmaqom. Gap bo‘lishi mumkin emas.

SKORPIUS: ikki karra qoyil.

DELFI/GERMIONA: O‘zimni o‘zimday his qilmayapman. Xatto, ovozim ham bir xil., uch karra qoyil.

ALBUS: Juda yaxshi endi meni galim.

SKORPIUS: Yo‘q, yo‘q Shoshma (kulib ko‘zoynakni taqadi) Kel birga...

ALBUS: Uch, ikki, bir.

Ular birga ichishdi.

Hammasi yaxshi (Og‘riqdan zo‘riqa boshlashadi) Unchalik yaxshi emas. Ular azoblana o‘zgara boshlashadi. )ALBUS, RON qiyofasiga, SKORPIUS, GARRI qiyofasiga kiradi.)

ALBUS\RON: Juda g‘alati bo‘larkan.

SKORPIUS/GARRI: (O‘zini jiddiy tutib, biroz yayrab) Qani, to‘g‘ri xonanga bor. Sen judacyomon bola bo‘lding.

ALBUS\RON: (kuladi): Skorpius...

SKORPIUS/GARRI: (Ridoni kiyadi) Bu seni g‘oyang men seni otang sen esa meni otangning do‘siti Ron bo‘lding. Ozgina Ko‘nglim ayniyapti... (Baland kekiradi) juda yoqimsiz ekan.

DELFI/GERMIONA: Ketishimiz kerak, bo‘la qolinglar...

Ular ko‘chaga chiqishadi. TELEFON BUTKASIGA kirib, 62442 raqamini terishadi.

TELEFON BUTKASI:

Xush kelibsiz, Garri Potter. Xush Kelibsiz GERMIONA Grenjer. Xush kelibsiz, RON Uizli.

Ular kulishadi. TELEFON BUTKASI yer qariga kirib ketadi.

## O‘n Yettinchi Parda

### Sehrgarlik Vazirligi Majlislar zali.

GARRI, GERMIONA, JINNA va DRAKO xona bo‘ylab u yoq bu yoq yurardi.

DRAKO: Sinchkovlik bilan qidirishyaptimi ?

GARRI: Bo‘linma qidiruvni allaqachon boshlab yuborgan, hozir davom ettirilyapti.

DRAKO: Shirinliklar sotuvchisi ham tayinli bir gap aytmadi.

GERMIONA: U Xogvarsiga be‘minnat xizmat qilgan emish. Keyin faqat qandaydir Otelin Gembl haqida gapirdi.

JINNA: sehrgarlarni ko‘rgan, Magllar haqida hech qanday malumot yo‘qmi ?

GERMIONA: Hozircha hech qanday ma'lumot yo‘q. Men Magllarning bosh vazirini bundan xabardor qildim . Bunday xabardan hayratga tushgan bo‘lsa kerak.

DRAKO: Nima endi bolalarimizni topish uchun magllardan yordam so‘raymizmi ? Balki Garrining chandig‘i to‘g‘risida ham gapirib berarmiz ?

GERMIONA: Birgina Magldan yordam so‘rasak so‘rabmizda nima qilibdi. Keyin Garrining chandig‘ini bu yerga hech qanday aloqasi yo‘q. Bu jiddiy ish, odamlarim bu ishni Qora joduga aloqasi yo‘qligini tekshirishmoqda va...

DRAKO: Bu ishni O‘limdan miriquvchilarga hech qanday aloqasi yo‘q.

GERMIONA: Fikringa qo‘shila olmayman.

DRAKO: Ishonch bilan aytamanki bu ishlar bir- biriga bog‘liq emas. To‘gri, qandaydir ovsarlar Qora jodu bilan shug‘ullanyapti. Lekin ular meni o‘g‘limni o‘g‘irlamaydi.

GARRI: Biron-bir yangilik bo‘limguncha hech narsa deyolmaymiz.

JINNA: Drako haq. Agar bu ularning ishi bo‘lsa ular faqat Albusni o‘g‘irlashardi ikkisini emas

GARRI, JINNAGA termilib qoladi. GARRI nima demoqchilagini JINNA tushuna boshlaydi.

DRAKO: Skorpius sodda, ko‘zga ko‘rinsrlı bola emas. Kim poyezdan ytushib qolishga majburlagan... menimcha Albus uni majburlagan. Yana bir savol tug‘ilyapti, Ular qayerga ketishgan ?

JINNA: Ular qochib ketishgan, Garri.

DRAKO bir-biriga qatab turgan juftlikka qaraydi.

DRAKO: Sen nimaninidir bilasan, Nimani yashiryapsan ?

Oraga jimlik cho‘kadi.

Hamma gapni hoziroq aytishingizni talab qilaman.

GARRI: Albus bilan maktabga ketishidan bir kun oldin janjallahib qolgan edik.

DRAKO: Keyinchi...

GARRI xijolat bo‘ladi. Keyin Drakoning ko‘ziga tik qaraydi.

Keyin men unga sendaka o‘glim bo‘lishini istamasligimni aytdim.

Yana oraga jimlik cho‘kadi.

Keyin DRAKO g‘azab bilan GARRI tomon yuradi.

DRAKO: Agar Skorpiusga biror nima bo‘lsa...

JINNA, GARRI va DRAKONING orasiga turib oladi.

JINNA: Iltimos, urishmanglar. Drako keragi yo‘q.

DRAKO: (o‘kirib) Meni o‘g‘lim yo‘qolib qoldi.

JINNA: (ham o‘kiradi) Nima ? Meni o‘g‘lim yo‘qolmadimi ?  
Ular xonani larzaga keltirib o‘kiradi.

DRAKO: (lablari titrab) Agar sizga oltin kerak bo‘lsa... aytavering Malfoylarda  
oltin bisyor... U meni yagona davomchim. Boshqa hech kimim yo‘q.

GERMIONA: Hamma narsa o‘zimizga yetarli, Drako.

DRAKO ketmoqchi bo‘lib turganida, toxtab GARRI tomon qaraydi.

DRAKO: Menga seni nima ishlar qilganing, odamlarni nimadan qutqarganiningni  
menga hech qanday ahamiyati yo‘q. Sen doim oilamga musibat olib kelgansan,  
Garri Potter.

## O‘n Sakkizinch Parda

### Sehrgarlik Vazirligi. Korridor.

SKORPIUS/GARRI: uni shu yerdaligiga aminmisan ?

Ular tomonga QOROVUL yaqinlashadi.

SKORPIUS/GARRI va DELFI/GERMIONA o‘zlarini muhim ish bilan  
shug‘illanishayotgandek ko‘rsata boshlaydi.

Siz haqsiz bu muammoni o‘ylab ko‘rib tezda hal qilishimiz kerak.

QOROVUL: (Bosh egib ) Vazir xonimlari

DELFI/GERMIONA: Bu muammoni o‘rtada hal qilaylik.

QORAVUL ketadi. Ular uflab yengil tortishadi.

Veritaserumdan foydalanish amakimning g’oyasi. Vazirlikdagi bir xodimning i  
himligiga solib qo‘ydik. U vaqt chig‘irig‘ini vazirning kabinetida ekanligini aytdi.

U Eshik tomonni ko'rsatadi. Shu payt boshqa eshik ortidan shovqin eshitiladi.

GERMIONA: (sahna ortidan) Garri... Biz bu haqida....

GARRI:(sahna ortidan) Bu yer gaplashib oladigan joy emas.

DELFI/GERMIONA: O, Yo‘q

ALBUS\RON: Germiona va dadam.

Ular sarosimaga tushisha boshlaydi.

SKORPIUS/GARRI: Mayli, qayerga yashirinamiz yashirinishga ham joy yo‘q. Hechkimda ko‘rinmas qiladigan biror bir buyum yo‘qmi ?

DELFI/GERMIONA: Balki uning kabinetiga yashirinarmiz.

ALBUS\RON: Ular ham o‘z kabinetiga qaytishadi.

DELFI/GERMIONA: To‘g‘ri boshqa qayerga ham borardi.

U eshikdan poystackdi keyin, yana bir marta poystackdi

GERMIONA: (sahna ortidan) Men bilan gaplashmasang, unda Jinna bilan...

SKORPIUS/GARRI (boshqa eshikka borib) Aloxomora !

U sehrli tayoqchasini eshikka o‘qtadi. Eshik shiqillab ochiladi. U kulib qo‘yadi.

Albus sen ularni chalg‘itib tur. Sen ularni chalg‘itishing kerak.

GARRI: (sahna ortidan) Xo‘sh nima demoqchisan ?

ALBUS\RON: Men. Nega aynan men ?

DELFI/GERMIONA: Agar ular bizni ko‘rib qolishsa nima bo‘lishini o‘ylab ko‘r.

GERMIONA:( Sahna ortidan) Bunday demasliging kerak edi. lekin to‘g‘ri vaziyat shuni taqazo qildi.

ALBUS\RON: Men bunday qila olmayman... Yo‘q, ozgina g‘ala- g‘ovur bo‘ladi.  
SKORPIUS/GARRI va DELFI/GERMIONA eshik ortiga o‘tib ketishadi.  
ALBUS\RON qoladi. Shu zahoti GERMIONA va GARRI sahnaga chiqishadi.

GARRI: Hamdardliging uchun rahmat, o‘zing tushunib turibsanku boshqa ilojim yo‘q edi.

GERMIONA: Ron ?

ALBUS\RON: Syurpriz !

ALBUS\RON: Xotinimni ko‘rgani keldim nima mumkin emasmi ?

U GERMIONANI o‘pib qo‘yadi.

GARRI: Men ketdim.

GERMIONA: Baribir, Albusga nima deganligingni, Drakoga aytish kerak emasdi.

ALBUS\RON: O, Garri bazan mendek(gapini to‘g‘rilaydi) Albusdek, o‘g‘li bo‘lishini hohlamasligi haqida gaplashyapsizlarmi ?

GERMIONA: Ron !

ALBUS\RON: Aytmoqchimanki bunday paytlarda indamagan maql.

GERMIONA: U ham tushunib turibdi. ... lekin, bazida o‘ylamay gapirib yuboradi.

ALBUS\RON: Hadeb, o‘ylamasdan gapiraversak... keyin nima bo‘ladi?

GERMIONA: Ron, hozir bu haqida gaplashadigan payt emas.

ALBUS\RON: Ha albatta, ko‘rishguncha jonginam.

ALBUS\RON, hozir u kabinet yonidan o‘tib ketadi degan umid bilan uni kuzatib turadi. Lekinbunday bo‘lmaydi. U, Germionaning kabinetiga kirishiga to‘sinqinlik qilish uchun u tomon yuguradi. Keyin ALBUS\RON uni yo‘lini to‘sadi. Va yana qayta oyoqlarini yozib to‘sadi.

GERMIONA: Nega kabinetimga kirishga halaqit beryapsan ?

ALBUS\RON: Xalqit bermayapman bermalol o‘taver.  
GERMIONA endi eshiga tomon yuzlangand. ALBUS\RON yana unga xalaqit beradi.

GERMIONA: Sen xalaqit beryapsan ?

ALBUS\RON: Kel, yana bir farzandli bo‘laylik ?

GERMIONA o‘zini eshitmaganlikka oladi.

GERMIONA: Nima ?

ALBUS\RON: Farzandli bo‘lishni istamasang kel unda ta‘tilga chiqaylik. Ikkisidan birini tanla. Kel yaxshisi bu haqida chetroqda gaplashib olaylik.

GERMIONA kabinetiga kirishga so‘ngi bor uringanda, ALBUS\RON uni yo‘lini to‘sib o‘pib oladi.

Balki "Teshik qozon"da Biror nima icharmiz ?  
Seni sevaman.

GERMIONA:( Ko‘ngli yumshab) Aytib qo‘yay, u yerda ham qo‘lansa bomba bo‘lsa, ayab o‘tirmayman Merlinni yordamga chaqirsang ham u senga yordam ber olmaydi. Mayli, biz magillardan xabar olaylik.

GERMIONA ketadi. U bilan GARRI ham ketadi.

ALBUS\RON eshik tomon burilganda. GERMIONA bir o‘zi qaytib keladi.

Bola yoki Ta’til ? Bugun chap tarafing bilan turdingmi ?

ALBUS\RON: Sen nima uchun men bilan turmush qurgansan? Meni Ajoyib Hazilkashligim tufayli shunday emasmi.

GERMIONA ketadi. ALBUS\RON endi eshikni ochmoqchi bo‘lganda, u yana qaytib keladi.

GERMIONA: Men baliq ta‘mini sezdim. Senga aytgandimku, Baliqli sendvichdan nariroq tur deb.

ALBUS\RON: Ha albatta.

GERMIONA ketadi. ALBUS\RON u aniq ketganligi tekshiradi. Ketganligiga ishonch hosil qilib, eshikni ochadi.

## O‘n Beshinchi Parda

### **Sehrgarlik Vazirligi, Germionaning kabineti.**

SKORPIUS/GARRI va DELFI/GERMIONA kabinet eshigi yonida ALBUS\RONNI kutib turadi. ALBUS\RON ishni tugatib xonaga kiradi va chuqr nafas oladi.

ALBUS\RON: Juda g‘alati ish bo‘ldi.

DELFI/GERMIONA: Rolingni mohirona ijro etding. Qoyilman.

SKORPIUS/GARRI: Juda besh baxoga loyiq chiqmadiku lekin xolang xo‘mrayib turganida uni o‘pib olganing uchun yuz martalab besh baho qo‘ydim.

ALBUS\RON: Ron amakim juda mehribon va seuvvchi inson. Men shunchaki unga taqlid qildim.

SKORPIUS/GARRI: Ha aytganday, dadang nima deganligini nima uchun menga aytma...

DELFI/GERMIONA: Bolalar... ular tez orada qaytishadi vaqtimiz kam.

ALBUS\RON: (SKORPIUS/GARRIGA qarab) Eshitdingmi ?

DELFI/GERMIONA: Germiona vaqt chig‘irig‘ini qayerga yashirgan bo‘lardi ( u xonaga ko‘z yogurtirib chiqadi va kitob javonlarida to‘xtaydi.) Kitob javonlarini qarab ko‘raylikchi.

Ular kitob javonini tekshirishni boshlaydi. SKORPIUS/GARRI qidira turib Do‘sriga yuzlanadi.

SKORPIUS/GARRI: Nimaga menga bu haqda hech narsa demading ?

ALBUS/RON: Otam menday o‘g‘li bo‘lishini istamasligini aytdi. Suhbatniyam ajoyib gapdan boshladingda.

SKORPIUS/GARRI: Men ham Voldemortning o‘g‘li emasligimni bilsam ham, lekin menimcha otam "Uni qanday bu dunyoga keltirdim?" deb o‘ylasa kerak.

ALBUS\RON: Aminmanki, shunga o‘xshash xolat endi mening otamda ham bo‘ladi. Otam ham endi ko‘p vaqtini "Qanday qilib uni ortga qaytarishim mumkin." degan o‘y bilan o‘tkazadi.

DELFI/GERMIONA, SKORPIUS/GARRI tomondagi kitobga qo‘l cho‘zadi.

DELFI/GERMIONA: Bu kitoblarni ko‘pligini qara.

SKORPIUS/GARRI: Agar biz o‘sha paytda uchrashmaganimizda do‘st bo‘lmagan bo‘larmidik. Agar bu sarguzashtlar bo‘limganda...

(to‘satdan u kitob javonidagi bazi bir kitoblarni ko‘rib qoshini chimiradi.) Bu kitoblarga qarang, bular oddiy kitoblar emas. Taqiqlangan va la‘natlangan kitoblar.

ALBUS\RON: Oldimizda shuncha ish turganda shu kitoblarga chalg‘ishing shartmi? Joyiga qo‘y.

SKORPIUS/GARRI: "Sehr-jodu Yovuzliklari qaydnomasi", "O‘n beshinchi asr iblislari", "Afsungarlar soneti" bularning barini Xogvars o‘qishni Taqiqlangan kitoblardir.

ALBUS\RON: "Soyalar va ruhlar" "Tungi sayohat. Nekromantiya yo‘lboshchisi

DELFI/GERMIONA: Juda g‘alati kitoblar ko‘p ekan.

SKORPIUS/GARRI: Buni qaranga Sivil Treloning "Ko‘zlarim va ular bilan o‘tmishni ko‘rish nomli Bashorat qilishni o‘rgatadigan kitob. Qiziq, Germiona bashoratlarni yomon ko‘rardiku?

U javondan kitobni olmoqchi bo‘lganda, kitob yerga tushib ketib gapira boshlaydi.

KITOB:

Bu so‘zlarga bering e‘tibor,  
Bo‘g‘inlarga e‘tibor qaratmoq darkor.

Devor, Dekabr, Deraza.

SKORPIUS/GARRI: Gapiradigan kitob.G‘alati.

KITOB:

Grammatikani bilsangiz oz-moz,  
"O‘zim“ so‘zining sinonimin toparsiz soz

ALBUS\RON: Topishmoq. U bizga topishmoq aytyapti.

KITOB:

Yana Grammatikaga murojaat etamiz,  
"keng“ so‘zining antonimin topamiz.

DELFI/GERMIONA: Nima qilib qo‘yding ?

SKORPIUS/GARRI: Men shunchaki kitobni ochdim. Umrinda hech bunaqa xatarli ish qilmadim. Kitob ALBUS\RONNING ustiga sakrab Kiyimini g‘ajiydi. ALBUS\RON undan zo‘rg‘a qutilib chiqadi.

ALBUS\RON: (Entikib) Nima bu ?

DELFI/GERMIONA: Kitoblar qurollantirdi. Ular kutubxonani himoya qilishyapti. Vaqt chig‘irig‘i qayerdadir, Shu yerda. Topishmoqni topib tur biz uni qidiramiz.

ALBUS\RON: Bu so‘zlarga bering e‘tibor.  
bo‘g‘inlarga ahamiyat qaratmoq darkor.  
Devor, dekabr, deraza. Hammasi "de" bilan boshlanar ekan.

Kitoblar DELFI/GERMIONAGA hujum qilishadi.

SKORPIUS/GARRI: Grammatikani bilsangiz oz-moz,  
"O‘zim“ so‘zining sinonimin toparsiz soz.  
Yana Grammatikaga murojaat etamiz,  
"keng“ so‘zining antonimin topamiz.

DELFI/GERMIONA:(Jahl bilan) O‘zim- men. Keng- tor.De-men-tor. Dementor. Dementorlar haqida birorta kitobni topish kerak. Topinglar. Ehtiyot bo‘ling.

ALBUS\RON: Mana, Dementorlarni boshqarish. Azkabanda bo‘lgan bo‘lgan

voqea. kitobi.

Kitob javoni ochilib, SKORPIUS/GARRI tomon tahdid bilan kela boshlaydi.

KITOB:

U hech o‘lmay, yashab keladi,  
Vaqt soati kelsa paydo bo‘ladi.

ALBUS\RON: Voldemort.

Kitob javoni DELFININI o‘z domiga torta boshlaydi.

DELFI: Tezroq !

DELFINI, Javondagi kitoblar domiga cho‘ka boshlaydi.

ALBUS\RON: Delfi, Delfi...

ALBUS\RON, uni qo‘lidan tutib olmoqchi bo‘ladi. Lekin DELFINI kitoblar domiga g‘arq bo‘ladi.

SKORPIUS/GARRI: U qaytadimi ?

ALBUS\RON: Uni hazm qilib yubormasidan. Tezroq qidir !Biror nimani top

U Javonlardagi kitoblarga ko‘z yugurtiradi.

Qara Slizerin vorisi balki shudir ?

U kitobni olmoqchi bo‘lganda kitob javoni uni ham o‘z domiga tortib yutub yuboradi.

SKORPIUS/GARRI: Albus...! Albus...!

ALBUS g‘oyib bo‘ladi.

Tushunnarli, bu kitob emas ekan. Voldemort, Voldemort...

U kitoblarni ko‘zdan kechira boshlaydi.

Marvoloning Haqiqat va...

U, shu kitobni olib, ochadi.

Kitob ko‘kka sapchib, ko‘zni qamashtiradigan darajada. nur sochadi. Va boyagi ovoz yana yangraydi.

KITOB:

Sen bilan borman,  
sensiz yo‘qman  
Bazida yoningdaman.  
Bazan oldingdaman.  
Nur tomon intilsang,  
Doim ortingdaman.

Shu payt kitob javoni ichida, ALBUS paydo bo‘ladi.

SKORPIUS/GARRI: Albus...

U ALBUSNI ushlab qolmoqchi bo‘ladi.

ALBUS: Yo‘q. To‘xta shunchaki fikrrrlaa.

ALBUSNI katta kuch javonning qarong‘u tomoniga toryib ketadi.

SKORPIUS/GARRI: Qo‘limdan kelmaydi. Boshqa vaziyatda topishim mumkin. lekin hozir miyyamga hech nima kelmayapti.

Pastda kitoblar uni kiyimidan tortqilaydi. hamma yer suv quygandek jimjit bo‘ladi. Va kutilmaganda Babax bir nima gumburlaydi. Javondagi kitoblar yerga to‘kila boshlaydi. SKORPIUS bu kitoblarni tekshirib chiqadi. Orqadagi javondagi kitoblar qator bo‘lib to‘kilib har xil shovqin bo‘ladi .

SKORPIUS: Yo‘q, Sevil Treloni to‘xta.

U atrofga alanglaydi. Hamma yerda kitoblar yerga to‘kiladi.

Albus? meni eshityapsanmi... Hammasi shu la‘nati vaqt chig‘irig‘ini deb bo‘ldi. Fikrla Skorpius fikrla ? Sen bilan borman, sensiz yo‘qman Nur tomon intilsang,

Doim ortingdaman. To‘xtanlar bu soya. "Soyalar va Ruhlar" shu kitob bo‘lishi kerak.

SKORPIUS kitobni javon yuqorosida ko‘radi va olish uchun unga tirmashadi. Qopog‘on kitob uni kiyimidan tishlab har chirmashganda oyog‘idan qattiqroq tortadi. U kitobni oladi va ochadi. Shovqin suron shu zahoti tinchiydi.

Shu kitobmi o‘zi...

Kutilmaganda javondan tarafdan gursillash eshitilib, ALBUS va DELFI paydo bo‘lib polga yiqiladi.

Yutdik, Kutubzonani yengdik.

ALBUS: Delfi, yaxshimisan...

DELFI: Ajoyib, mana buni sarguzasht desa bo‘ladi.

ALBUS, SKORPIUSNING qo‘lidagi kitobga ko‘zi tushadi.

ALBUS: Nima bu Skorpius, kitob ichidagi ?

DELFI: Menimcha uni topdik, shundaymi ?

SKORPIUS kitobni ochadi kitobningvmarkazida vaqt chig‘irig‘i aylanib turgan bo‘ladi.

SKORPIUS: Topdik. Topa olmaymiz deb o‘ylagandim.

ALBUS: Do‘stim Sarguzashtlar endi boshlanyapti, Ana endi Sedrikni qutqaramiz.

SKORPIUS: O‘lishimizga bir baxya qoldi Lekin ajoyib sarguzasht bo‘ldi... Hammasi yaxshi boshlandi, oxiri ham shunday bo‘ladi deb umid qilaman.

Sahna chiroqlari o‘chiriladi.

## **IKKINCHI AKT**

### **Birinchi Parda**

**Tush, Odamovilar ko‘chasi, Zinapoya ostidagi bufet.**

PETUNIYA XOLA: Garri, Garri, Krujkalarni tozalab yuvmabsan, juda kir-ku.  
Garri Potter tur o‘rningdan.,

YOSH GARRI uyg‘onadi va atrofida aylanib yurgan xolasini ko‘radi.

YOSH GARRI: Petuniya xola, soat nechchi bo‘ldi ?

PETUNIYA XOLA: Soatni boshinga urasanmi. Biz seni tarbiyamizga olganimizda sendan yaxshi odam chiqadi deb o‘ylagan edik, afsuski bunday emas ekan.

YOSH GARRI: Men qo‘limdan kelgancha...

PETUNIYA XOLA: Bitta ishni ham eplay olmaysan. Hamma stakanlar yog‘ga belanib yotibdi. Stakanlar ham kir. Qani, tez o‘rningdan turib tozalash ishlarini boshla.

YOSH GARRI yotog‘idan turadi. Uning shimida ho‘l dog‘ bo‘ladi.

O, yo‘q, yo‘q, Yana joyingni ho‘llab qo‘ydingmi ?

U choyshabni bir chetidan tortadi.

Nega nomaqbul eshingni bu yerda qilding.

YOSH GARRI: Men... meni kechiring. Men yomon tush ko‘rdim

PETUNIYA XOLA: Sen juda isqirt bolasan. Faqat hayvonlar va isqirt bolalar o‘z joyini isqirt qilishadi.

YOSH GARRI: Tushimda ota-onamni ko‘rdim, menimcha ularni o‘limini ko‘rdim.

PETUNIYA XOLA: Buni menga qizig‘i yo‘q.

YOSH GARRI: Men qandaydir odamni adkava adi..

Akabrami-yey deb ilonga o‘xshab shivirlashni va Qichqiriq menimcha onam qichqirdi.

PETUNIYA XOLA ko‘rinishini biroz tartibga keltiradi.

PETUNIYA XOLA: Haqiqatdan ham ularni o‘limi ko‘rgansan. Faqat eshitgan ovozing tormoz ovozi va yana shunga o‘xhash ovozlar. Ota-onang avtoxalokat tufayli vafot etishgan. Lekin onangni qichqirishga ulgurmagan bo‘lsa kerak. Boshqa hech narsani so‘rama. Endi joyingni yig‘ib, oshxonaga chiq.

U xonani eshigini gursillatib chiqib ketadi.

YOSH GARRI, qo‘lida choyshabni ushlagan joyida qoladi.

Tush o‘zgara boshlaydi. Sahna ham o‘rmonli ko‘rinishga o‘zgaradi. To‘satdan o‘rmonning o‘rtasida ALBUS paydo bo‘ladi, YOSH GARRI va ALBUS bir birlariga qarab turadi. Keyin xona burchaklaridan ilonnikiga o‘xshgan sado eshitiladi.

U qaytyapti. Qaytyapti.

Bu ovozni tanimaslikni iloji yo‘q, bu Voldemortning ovozi...

GAAAARRI POTTERR.

## **Ikkinci Parda**

### **Garri va Jinna Potterlarning uyi. Zinapoya.**

Garri qorong‘u xonada qo‘rqib uyg‘onadi. Hansiraydi. U charchagan ko‘rinadi va umi qo‘rquv chulg‘ay boshlaydi.

GARRI: Lyumos.

JINNA chiroq yonganini ko‘rib hayratlanadi.

JINNA: Hammasi joyidami ?

GARRI: Uxlab qolibman.

JINNA: Ha.

GARRI: Biron bir yangilik yo‘qmi ? Boyqush kelmadimi ?

JINNA: Hech qanday yangilik yo‘q.

GARRI: Tushumda Voldemortning ovozini eshitdim.

JINNA: Voldemortni ?

GARRI: Keyin Albusni ko‘rdim U qizarib ketgan. Durmslang formasida edi.

JINNA: Durmslang ?

GARRI o‘ylanib qoladi.

GARRI: Menimcha, ularni qayerdaligini bilaman.

## **Uchinchi Parda**

### **Xogvars, Direktor xonasi.**

GARRI va JINNA, PROFESSOR MAKGONAGALNING kabinetida turishadi.

PROFESSOR MAKGONAGAL: Taqiqlangan o‘rmonning aynan qayerida ekanligini bilmaymiz.

GARRI: Bunaqa tush ko‘rmaganimga ancha bo‘luvdi, Albus o‘sha yerda.

JINNA: Qidiruvni qancha erta boshlasak shuncha yaxshi.

PROFESSOR MAKGONAGAL: sizlarga hamroh qilib Professor Longbottomni jo‘natishim mumkin. Uning o‘simliklar bo‘yicha bilimi sizlarga yordam berar.

To‘satdan xonadagi mo‘rikon gumburlaydi. PROFESSOR MAKGONAGAL

mo‘rikonga xavotirli qaraydi. Kamenda GERMIONA paydo bo‘ladi.

GERMIONA: Shu gaplar rostmi ? Yordam kerakmi ?

PROFFESSOR MAKGONAGAL: Kutilmagan mehmon, Vazir xonimlari.

JINNA: Bunga men sabab, Men ularni kunlik bashoratlar sahifasida qidiruv ishlariga talabgorlarni qidiryapmiz deb e‘lon berganimga ishontirdim.

PROFFESSOR MAKGONAGAL: Juda yaxshi. Mulohazali ish bo‘libdi. Menimcha yana kimdir kelyapti.

Kaminga gursillab RON paydo bo‘ladi. U qurumga belangan, va ko‘ylagiga sous dog‘i tekkan salfetka yopishibgan holda keladi.

RON: Hech narsani o‘tkazib yubormadinmmi ? Qaysi kamindan tanlash bilmay, kutilmaganda oshxonaga tushib qoladi. (U salfetkani olib tashlayotganida, GERMIONA unga tikilib qoladi. ) Nima ?

Kamindan yana kuchli gursillash eshirilib DRAKO paydo bo‘ladi. U ust- boshini qoqadi.

DRAKO: Gilam uchun mazur tutadilar.

PROFFESSOR MAKGONAGAL: Bunga o‘zim sababchiman. Kaminlar aloqasiga ulanmasligim kerak edi.

GARRI: Bu yerda ko‘raman deb o‘ylamagandim. Men seni tushlarimga ishonmaydi deb o‘ylagandim.

DRAKO: Ishonmayman. Lekin sen omadlisan. Garri Potter doim e‘tibor markazida bo‘lib kelgan. Men shunchaki, o‘g‘limni eson omon uyga qaytishini hohlayman.

JINNA: Unday bo‘lsa ketdik.

## To‘rtinchi Parda

## **Taqiqlangan o‘rmon chekkasi.**

ALBUS va DELFI bir biriga qarama qarshi turib sehrli tayoqchasini shaylaydi.

ALBUS: Ekspeliarmus !

DELFINING sehrli tayoqchasi havoga uchib ketadi.

DELFI: Yaxshi. Tezda uqib olarkansan.

U tayoqchasini qaytib oladi.

(Tantonavor ovozda) Qurollansiztirish afsunini juda yaxshi bilarkansiz, yosh janob.

ALBUS: Ekspeliarmus !

DELFINING tayoqchasi yana uchib ketadi.

DELFI: Shunday qilib bizning g‘olibimiz - Albus.

Besh tashlashadi.

ALBUS; Avval afsunlarim hech bunchalik o‘xshamasdi.

Sahnaga SKORPIUS chiqib keladi. Do‘sti qiz bola bilan gaplashayotganligi SKORPIUSGA uncha yoqmaydi.

DELFI: Birinchi urinishda men ham uddalay olmaganman, keyinchalik muvaffaqiyatli chiqqan. Senda ham shunday. Menimcha sendan ajoyib sehrgar chiqadi, Albus Potter.

ALBUS: Unday bo‘lsa yana nimalarni bilasan, hammasini o‘rgat.

DELFI: Albatta o‘rgataman. Biz axir do‘stmiz-ku, Shundaymi ?

ALBUS: Ha Albatta. Inoq do‘stlarmiz.

DELFI: Juda yaxshi, Vizzo !

SKORPIUS: Nima u "Vizzo"

SKORPIUS ular tomon yaqinlashadi.

ALBUS: Bu afsun, Menga sehrgarlik qilishimga yordam beradi. Bu juda oddiyga o‘xshaydi lekin... Qisqasi yordam beradida.

SKORPIUS: (O‘zini aqlli ko‘rsatish uchun) Men maktab olib boradigan yo‘lni topdim. Gapimni eshititing, Rejangiz ish berishiga ko‘zingiz yetyaptimi ?

ALBUS: Bu yaxshi reja-ku. Sedrikni qutqarish uchun musobaqaqada yutishiga yo‘l qo‘ymaymiz. Yutqazsa omon qoladi.

SKORPIUS: Tushunib turibman lekin...

ALBUS: Birinchi musobaqadayoq uni yutish imkoniyatini yo‘qqa chiqarishimiz darkor. Biz ajdarning oltin tuxumini olib qo‘yishimiz kerak. Sedrik qay tarzda bu ishni uddalagan ?

DELFI qo‘lini ko‘taradi. Albus kulib unga imo qiladi. Ular bir-birini hurmat qilishadi.

So‘z sizga, Diggori.

DELFI: U toshni itga aylantiradi.

ALBUS: Ekspeliarmusdan foydalanamiz, keyin u hech narsa qila olmaydi.

SKORPIUS ularning fikrini uncha xushlamaydi.

SKORPIUS: Ho‘p mayli. Menda ikkita savol bor. Birinchisi: Ajdar uni o‘ldirib qo‘ymasligiga kim kafolat beradi ?

DELFI: U o‘lmaydi. Bu Xogvars. Ular championni jarohatlanoshiga yo‘l qoyishmaydi.

SKORPIUS: Tushunarli. Endi ikkinchi savol: o‘tmishga qaytdik ham deylik. Keyin qanday qilib ortga qaytamiz ? Bu haqda ham o‘ylab ko‘ring. Balki vaqtini bir soatga oldinga surib ko‘rarmiz. Shunda hammasi ayon bo‘ladi.

DELFI: Kechir, Skorpius, Biz vaqt o‘tkazmasligimiz kerak. Maktabga yaqin turibmiz. Vaqt o‘tkazishdan biron-bir foydasi yo‘q. Qaytanga xavfli. Agar bizni bilb qolishsa...

ALBUS: Uning gapi to‘g‘ri.

DELFI: Ana endi buni kiyib oling.

U bolalarga qog‘oz paket beradi. Bolalar uni ichidan maktab formasini oladi.

ALBUS: Durmstrang maktabining formasi-ku.

DELFI: Bu amakimni g‘oyasi. Bizda Xogvars ridosi bo‘lmasligi kerak. Xogvarsliklar bir-birini yaxshi taniydi. Musobaqada yana ikkita maktab bo‘ladi. Agar biz ularning formasini kiyib olsak, olamonga qo‘shila olamiz. To‘g‘rimi ?

ALBUS: Juda to‘g‘ri, Shoshma seni formang qani ?

DELFI: Albus, Men juda katta ko‘rinaman. O‘quvchilarga qo‘shila olmayman. Men ko‘zga tashlanmaslikka harakat qilaman... Ha yana Ajdarni chalg‘itib turaman, sen afsunlaysan.

SKORPIUS Avval unga keyin ALBUSGA qaraydi.

SKORPIUS: Biz bilan ketishing shart emas.

DELFI; Nima ?

SKORPIUS: Sen haqsan, sen afsunlamaysan. Maktab formasini ham kiya olmaysan. Biz qaltis ishga qo‘l urgan bo‘lamiz. Kechir, Delfi.

DELFI: Lekin men..axir u meni amakim, Albus?

ALBUS: Menimcha u haq. Kechir.

DELFI: Nima ?

ALBUS: Xato qilishga haqqimiz yo‘q.

DELFI: Mensiz... Vaqt chig‘irig‘idan foydalna olmaysiz.

ALBUS: O‘zing bizga umdan qanday foydalnish kerakligi o‘rgatding.

DELFI xafa ko‘rinadi.

DELFI: Yo‘q bunday qilmaysizlar, bunga yo‘l qo‘ymayman.

ALBUS: Axir o‘zing amakinga bizga ishonishi kerakligini tushuntirdingku. Endi o‘zing ham tushun. Maktab yaqin Shu yerda qolishing kerak.

DELFI ularga o‘ylanib qaraydi.

DELFI: Ha mayli. Lekin shuni unutmang bugun siz tarixni va bugungi vaqt ni o‘zgartirasiz shuningdek qariyaga o‘z o‘g‘lini qaytarish imkoniyati bor bu imkoniyatdan oqilona foydalanasiz degan umiddaman.

U kuladi keyin egilib ALBUSDNING yuzidan o‘pib qo‘yadi.  
U ketadi. ALBUS uning ortidan qarab qoladi.

SKORPIUS: Ko‘rdingmi ? U meni o‘pib qo‘ymadi. (U do‘stiga qaraydi) tinchlikmi Albus qizarib ketding. Ham oqarib, ham qizarib ketding

ALBUS: Mayli, ketdik.

## Beshinchi Parda

### Taqiqlangan o‘rmon.

O‘rmon quyuq o‘rmin ichida yo‘qolgan bolalarni qidirib yurgan odamlar ko‘rinadi. Odamlar o‘tib ketib g‘oyib bo‘ladi. GARRI ortda qolib ketadi. Qandaydir ovozni eshitadi. O‘ng tomonga buriladi.

GARRI: Albus? Senmisan? Skorpius?

Keyin ot tuyog‘ni dupurlaganini eshitadi. U ovoz kelayotgan tarafga qaraydi. Shu payt ko‘rkam va bahaybat kentavr- BEYN paydo bo‘ladi.

BEYN: Garri Potter.

GARRI: Ha sizmisiz, esingizda ekanman.

BEYN: Ancha ulg‘ayibsan.

GARRI: Ha

BEYN: Lekin haliyam aqling joyida emas. Agar joyida bo‘lganda bizning yerlarimizga qaytib qadam bosmasding.

GARRI: Men doim kentavrlarni hurmat qilib kelganman. Biz dushma emasmiz. Siz Xogvars uchun mardonavor jang qilgansiz. Men ham siz bilan jang qilganman.

BEYN: Men o‘z burchimni bajarganman. O‘z qabilam va g‘ururim uchun bu ishni qilganman. Sen uchun emas. Urushdan so‘ng bu yerlar kantavr yeri deb hisoblanadi. Sen bu yerga ruxsatsiz qadam bosgan ekansan demak sen kentavrlar dushmani hisoblanasan.

GARRI: O‘g‘lim yo‘qolib qoldi, Beyn iltimos topishga yordam ber.

BEYN: Shu yerdami ? o‘rmonimizdam ?

GARRI: Ha

BEYN: Unday bo‘lsa u ham senga o‘xshagan ahmoq ekan.

GARRI: Menga yordam berasizmi ?

Qisqa jimlik. BEYN, GARRIGA ulug‘vor qaraydi.

BEYN: Men senga bilganimni aytaman... buni seni foydanga emas o‘z qabilam foydasi uchun aftyapman. Kentavrlarga yana urush kerak emas.

GARRI: Bizga ham. Nimani bilasiz ?

BEYN: O‘g‘lingni ko‘rdim. Uni Yulduzlardagi harakatini ko‘rdim.

GARRI: Yulduzlardagi ?

BEYN: Uni qayerdaliginu aytib bera olmayman. Qanday topishingni ham aytta olmayman.

GARRI: Lekin sen nimanidir ko‘rding. Bashorat qildingku

BEYN: O‘g‘lingni atrfoni qora bulut qoplagan. Xavfli qora bulut.

GARRI: Qora bulut?

BEYN: Qora bulut hammamizni xavf ostiga qo‘yoshi mumkin. Sen o‘g‘lingni topasan, Garri Potter lekin keyn uni bir umrga yo‘qotasan

. U otning tovushiga o‘xshagan tovush chiqarib. Tezda nari ketadi. GARRI easnkirab qoladi. Keyin kuch g‘ayratini to‘plab qidirishni davom ettiradi.

GARRI: Albus! Albus !

## Oltinchi Parda

### Taqiqlangan o‘rmon chekkasi

SKORPIUS va ALBUS Daraxtlar orasida turishadi  
Shox shabbalar orasidan ajoyib nur tushib turadi.

SKORPIUS: Mana

ALBUS: Xogvars. Avval hech bu tarafdan ko‘rmagan ekanman.

SKORPIUS: Uni ko‘rganingda hech bir ajib hissiyotlarga berilganmisan ?

Daraxtlar orasidan hashamatli, uzun minoralari huddi piyozboshni eslatadigan Xogvars qasri ko‘rinadi.

Birinchi martab bu qasrni ko‘rganimda uni ichiga kirishni o‘ylardim. Otamga bu joy yoqmaydi, shuning uchun bu maktab haqidagi tariflari... O‘n yildan buyon har tong uyg‘onganimda bashort-u Karomat gazetasini ko‘zdan kechirardim. Gazetaning bosh sahifasida bu hashamatli qasrning hech bo‘lmaganda uzoqdan olingen suratini bosib chiqarishini intazorlik bilan kutardim.

ALBUS: Va nixoyat bu hashamatli qasrga kelganingda, bu yer rasvo joy ekanligini tushunib yetding.

SKORPIUS: Bunday emas.

ALBUS do'stiga hayrat ila qaraydi.

Men Xogvarsga borishni va Garri Potterga o'xshagan xushchaqchaq do'st orttirishni xohlardim. Shunday qilib uning o'g'li bilan do'stlashdim. Mana bu xaqiqiy omad.

ALBUS: Lekin men otamga umuman o'xshamayman-ku.

SKORPIUS: Sen meni eng yaxshi do'stimsan. Sal g'alati ishlar bo'lyaptiyu ammao bularning bari ajoyib. Lekin... Men sal qo'rqtyapman.

ALBUS, SKORPIUSGA qarab kuladi.

ALBUS: Sen ham meni eng yaxshi do'stimsan. Xavotir olma, ko'nglim sezyapti hammasi yaxshi bo'ladi.

Orqa tarafdan RONNING ovozi eshitiladi. U bolalarga yaqin kelib qolgan bo'ladi.

RON: Albus? Albus.

ALBUS uni ko'rib ortga o'giriladi.

ALBUS: Hoziroq ketishimiz kerak.

ALBUS, SKORPIUSDAN Vaqt chig'irig'ini olib ishga tushiradi. Vaqt chig'irig'i tebranadi, keyin hamma narsa harakatga keladi. Sahna o'zgara boshlaydi bolalar atrofga alanglaydi. Qulonqi qomatga keltiradigan shovqin bo'lib, atrof yorishadi. Vaqt to'xtaydi. Keyin vaqt chig'irig'i buriladi, ortga sekin asta aylana boshlaydi. Keyin tezlashadi...

## **Yettinchi Parda**

**Uch afsungar bellashuvi, Taqiqlangan o'rmon chekkasi, 1994-yil.**

ALBUS va SKORPIUS atrofi odamlarga to'lgan, juda sershovqin joyda paydo bo'ladi. Shu payt sahnada "Dunyodagi eng zo'r boshlovchi" (bunday deb o'zini

o‘zi ataydi) paydo bo‘ladi. Ovozini balandlatish uchun Sonorus afsunidan foydalanadi va... butun auditoriya e‘tiborini o‘ziga jalb qiladim

LYUDO BEGMAN: Xonimlar va janoblar, qizaloq va yigitlar. Qarshi oling afsonaviy, qiziqarli va o‘ziga xos Uch afsungar bellashuvi.

Gulduros qarsaklar yangraydi.

Xogvarsliklar shu yerdamisiz? Qarsaklariningiz eshitilmayapti.

Gulduros qarsaklar yana bir bor yangraydi.

Durmstrangchi? shu yerdami ?

Qarsaklar yangraydi.

Sharmbaton qarsaklarni ayamang.

Sal susaygan qarsaklar yangraydi.

Fransuzlarni bugun kayfiyati yo‘qqa o‘xshaydi.

SKORPIUS: (kulib) Qoyil ish berdi. O‘tmishga qaytdik. Bu Lyudo Begman-ku.

LYUDO BEGMAN: Mana ular bizni bu yerga yig‘lishimizga sababchi bo‘lib turgan championlarni kutib oling. (Durmstrang maktabi turgan tomonni ko‘rsatadi) Kamon qoshlarini qarang, shaxdam qadamlarini qarang, bu ko‘rkam yigit kvidish moxir o‘yinchisi Viktor Kram !

SKORPIUS va ALBUS: ( Durmstrang o‘quvchilari roliga kirib) Olg‘a Kram, Olg‘a Kram.

LYUDO BEGMAN: Sharmbatton Afsungarlik akademiyasidan, Tlyor Delakur !

Olqishlar yangraydi.

Xogvarsdan bir emas ikki ishtirokchi. Biri o‘ziga xosligi bilan ajralib turadigan. Yoqimtoy Sedrik Diggori.

Tomoshabinlar gulduros qarsak chalishadi.

Ikkinchi ishtirokchi esa Yovuz kuchlardan omon qolib bizni hayratga solgan bola...

ALBUS: Bu meni dadam.

LYUDO BEGMAN: Ha bu siz bilgan Dovyurak Garri Potter.

Olqishlar yangraydi. Tomoshabinlar orasidagi YOSH GERMIONA (YOSH GERMIONA rolini ROZA roldagi aktrisa o‘ynaydi) balandroq qarsak chaladi. SEDRIKKA qaraganda GARRIGA qarsaklar sezilarli darajada kuchaygan bo‘ladi.

Tinchlanib olamiz. Birinchi topshiriq: Oltin tuxumni qo‘lga kiritish. Oltin tuxumni qo‘lga kiritish. Uyadagi tuxumni Ajdarlar qo‘riqlaydi. Ajdarlarni Charli Uizli kuzatib turadi.

Gulduros qarsaklar yangraydi.

YOSH GERMIONA: Iltimos qulog‘im ostida hansiramang !

SKORPIUS: Roza ? Bu yerda nima qilyapsan ?

YOSH GERMIONA: Kim u Roza ?

ALBUS: Kechirasan, Germiona. Biz seni boshqa birovga o‘xshatibmiz.

YOSH GERMIONA: Ismimni qayerdan bilasiz ?

LYUDO BEGMAN: Kelinglar, vaqt ni o‘tkazmasdan. Birinchi championni chorlaymiz. U shved kalta tumshuq ajdari bilan jang qiladi. Kutib oling Sedrik Diggori.

Ajdarning narasidan YOSH GERMIONANING fikri bo‘linadi.

Albus tayoqchasini shaylaydi.

Mana, Sedrik Diggori ham maydonga chiqmoqda.

SEDRIK jangga tayyorlanadi. Sal qo‘rqadi. U bir tarfga turib oladi ketin joyini almashtiradi. Uni ko‘rgan qizlar hyajonlanishad.

SKORPIUS notinch ko‘rinadi.

SKORPIUS: Albus nimadir noto‘g‘riga o‘xshaydi. Vaqt chig‘irig‘i qimirlab chiqillay boshladi.

LYUDO BEGMAN: Sedrik chap tarafdagи chuqurni ko‘zdan kechirib o‘ng taraf dagisiga sakradi. Tayoqchasini shaylamoqdam Bu yoqimtoy yigitni u yerda qanday surpriz kutib turgan ek...?

ALBUS (qo‘liga tayoqchasini olib): Ekspeliarmus !

SEDRIKNING tayoqchasi ALBUSNING qo‘liga uchib keldi.

LYUDO BEGMAN: Nimalar bo‘lyapti ? Bu qora jodumi ? Uning tayoqchasi uchib ketdi. Kimdir uni quollansitzirdi.

SKORPIUS: Vaqt chig‘irig‘iga nimadir bo‘ldi ?

Vaqt chig‘iri‘i chiqillashi balandlashadim

LYUDO BEGMAN: Afsus, Diggorini axvoli chatoq. Uning uchun musobaqa yakunlanganga o‘xshaydi.

SKORPIUS, ALBUSNI ushlab oladi.

Vaq aylanasi chiqillab nur socha boshlaydi.

Haqiqy vaqt qaytadi.

ALBUS o‘g‘riqdan dodlaydi.

SKORPIUS: Albus, Nima bo‘ldi ?

ALBUS: Nima bo‘ldi o‘zi ?

SKORPIUS: Bundan foydalanishni me‘yori borga o‘xahaydi

ALBUS: Uddaladikmi ? O'zgartirdikmi ?

Sahnaga GARRI, RON, JINNA va DRAKO chiqib kelishadi. SKORPIUS ularni ko‘rishi bilanoq Vaqt chig‘irig‘ini sezdirmay cho‘mtagiga solib qo‘yadi. ALBUS og‘ringanligi sababli ularga uncha e‘tinor bermaydi.  
RON: Aytgandimku ularni ko‘rdim deb.

SKORPIUS:

ALBUS: Salom dada nimadir bo‘ldimi ?

GARRI: Ha ko‘p ishlar bo‘ldi. Endi o‘zing aytib berasan nima bo‘lganini.

ALBUS yerga yiqlidi GARRI va JINNA unga yordamga oshiqishadi.

## **Sakkizinchı Parda**

### **Xogvars , Kasalxona**

**ALBUS kasalxona yotog‘ida uxlayotgan bo‘ladi. Uning qarshisida GARRI bezovtalanib o‘tiradi. Oldinroqda esa tashvishlanayotgan mehribon insonning surati bo‘ladi. GARRI ko‘zlarini ishqalab o‘rnidan turadi. Xona bo‘ylab u yoq bu yoqqa yura boshlaydi.** Bir kerishib oladi. Keyin xavotirli qarab turgan portretdag‘i insonga ko‘zi tushadi.

GARRI: Proffessor Damblidor

DAMBLDOR: Hayrli kech, Garri

GARRI: Sizni kutib o‘tirgandim. Xonaga kirganimda Portretingiz bo‘m-bo‘sh, faqat ramkasi turgan ekan.

DAMBLDOR: Shunchaki boshqa portlerimni ham bir aylanib kelay dedimda. (ALBUSGA qaraydi) Axvoli qanday, yaxshimi ?

GARRI: Bir sutkadan beri uxlayapti. Pomfri xonim uni qo‘lini tezda davoladi.

Aytishicha uni qo‘lini yigirma yil oldin haligacha tiklanmaganga o‘xsharmish.

DAMBLDOR: O‘z farzandingni biron yeri o‘g‘rib yotishini ko‘rish naqadar azobli. GARRI, tepadagi DAMBLDORGA qarab keyin ALBUSGA qaraydi.

GARRI: Unga sizning ismingizni qo‘yganimda sizda qanday hissiyotlar o‘tgan ?

DAMBLDOR: Ochig‘ni aytganda sen bu bechora bolaning yelkasiga juda katta mas’uliyatni yuklagansan.

GARRI: Menga yordamingiz kerak. Maslahatingizga muxtojman. Beyn aytdiki o‘g‘lim xavf ostida ekan. Uni qananday ximoya qilishim mumkin, Dambl dor ?

DAMBLDOR: Shuncha odam turganda, o' g'limni qanday himoya qilaman deb mendan yordam so‘rayapsanmi ? O'glingni bundan ximoya qila olmaymiz. O'g‘riq o‘tadi ketadi.

GARRI: Nima endi men bir chekkada turib bularni kuzatib turishim kerakmi ?

DAMBLDOR: Yo‘q. Sen u bilan yaxshi muomalada bo‘lishing kerak.

GARRI: Qanday qilib ? U umuman gaplarimni qulog‘iga ilmaydi.

DAMBLDOR: Balki seni o‘zi istagan odam singari bo‘lishingni xoxlayotgandir ?

GARRI tirishib endi gapirmoqchi bo‘ladi.

məktəb və vazirlikdagi barcha gaplarnı boshqa portretlardan eshitib turaman.

GARRI: Men va o‘g‘lim haqidagi g‘iybatlarnimi ?

DAMBLDOR: G‘iybat emas. Notinchlikni. Orangizda kelishmovchilik ko‘p. Sababi u g‘alati bola. U senga jahl qilyapti. Unga hadeb qayg‘urishing seni so‘qir qilibdi.

GARRI: So‘qir qilibdi ?

DAMBLDOR: Sen Uni qanday bo‘lsa shunday qabul qilishing kerak. Unga nima azob berayotganligini bilishing kerak.

GARRI: So‘qirmanmi ? O‘g‘limni nim abzobga solyapti ? (O‘ylaydi) Yoki Kim azoblayabdi ?

ALBUS: (Alaxsirab) Dada...

GARRI: Qora bulut narsa emas qandaydir shaxs. Shundaymi ?

DAMBLDOR: Men shunchaki bo‘yoq va xotiraman Garri, keyin meni hech qachon o‘g‘lim bo‘lмаган.

GARRI: Lekin menga maslaxatingiz kerak

ALBUS: Dada ?

GARRI, ALBUSGA qaraydi keyin DAMBLDORGA lekin u g‘oyib bo‘lgan bo‘лади.

GARRI: To‘xtang ! Qayerga kettingiz?

ALBUS: Kasalxonadamizmi ?

GARRI diqqatini ALBUSGA qaratadi.

GARRI: (ishonqiramay) Ha, axboling joyida. Endi mazza qilib shokolad yeishing mumkin, Pomfri xonim bu haqda hech nima demadi. Seni mexmon qilishimga qarshi emasmisan ? Bazi narsalar gaplashishib olishimiz kerak. To‘g‘ri senga yiqlaydi, lekin gaplashishib olishimiz shart.

ALBUS otasiga qaraydi. Nima demoqchi ekan ?

ALBUS: Mayli, Qani shokolad ?

GARRI shokoladni oladi va özi katta bo‘lagini tishlaydi. ALBUS hijolat bo‘lib unga qaraydi.

Yaxshi ekanmi ?

GARRI: Bo‘лади.

U shokoladni o‘g‘liga uzatadi.

ALBUS shokolad bo‘lagini oladi. Ota-bola birgalikda shokolad yeyishadi.

Qo‘ling yaxshimi ?  
ALBUS qo‘lini egib ko‘radi.

ALBUS: Yaxshi.

GARRI: (oxista) Qayerda eding Albus ? Sendan juda xavotir oldik. Oying o‘zini qo‘yarga joy topa olmadi.

ALBUS yolg‘on to‘qiy boshlaydi. U otasiga qaraydi.

ALBUS: Biz Xogvarsga qaytmasdan, Magllar olamida hayotimizni qaytadan boshlashni o‘ylagandik. Bu ishimiz xato ekanligi tushunib yetdik va Xogvarsga qaytayotganimizda bizni topfingiz.

GARRI: Unda Durmstrang Formasi qayoqdan paydo bo‘ldi ?

ALBUS: Bu forma... Skorpius bilan...

GARRI: Nega qochib ketdinglar men aytgan gap sabablimi ?

ALBUS: Yo‘q. Xogvarsda menga joy yo‘q. Xogvars meni uyim emas.

GARRI: Qochishga Skorpius undadimi ?

ALBUS: Skorpius? Yo‘q.

GARRI, ALBUSGA o‘ylanib qarab qoladi.

GARRI: Skorpiusdan nariroq yur.

ALBUS: Nima ? Nariroq yur.

GARRI: Qachon u bilan do‘st bo‘lishga ulgurding.  
Gap bitta. Sen undan...

ALBUS: Eng yaxshi do‘stimdan Nariroq yuraymi ?

SKORPIUS: Senga u xavf tug‘dirishi mumkin.

ALBUS: Skorpius ? Xavfli ? Siz hech uni ko‘rganmisiz ? Siz uni rostdanham Voldemortning o‘g‘li deb o‘layapsizmi ?

GARRI: Uni kimligini bilmayman. Lekin sen u bilan a‘loqalaringni uzishing kerak. Beyn aytdiki...

ALBUS: Kim u Beyn ?

GARRI: Bashoratchi kentavr. Aytishicha seni atrofingni qora bulut qamrab olibdi.

ALBUS: Qora bulut ?

GARRI: Men seni Qora joduga oid hamma narsadan muhofaza qilishim kerak. Skorpiusdan ham.

ALBUS hayratlanadi. Keyin jahli chiqadi.

ALBUS: Gapingizga qulq solmasamchi ?

GARRI o‘g‘liga qaraydi, Bu haqda ham o‘lay boshlaydi.

GARRI: Menda xarita bor. Bu xarita menga mushkul vaziyatlarimda doim yordam berib kelgan. Professor Makgonagal endi har bir bosgan qadamingni kuzatib turadi. Agar Skorpius bilan birha yurgingni ko‘rsa tezda ajratadi. Agar Xogvarsdan qochmoqchi bo‘lsangiz tezda ortingizga qaytaradi. Skorpius bilan endi hech qachon uchrashmaysan. Griffindor mexmonxonasidan tashqariga chiqmay, o‘z ishlaring o‘sha yerda shug‘ullanasan.

ALBUS: Men axir Slizerinda o‘qiymen-ku. Qanaqasiga...

GARRI: Boshimni qotirma, Albus. O‘zingni fakultetingni juda yaxshi bilasan. Endi men seni har bir harakatingni, kimlar bilan gaplashishingni tekshirib boraman.

ALBUS: (yig‘lay boshlaydi) Siz bunday qila...

GARRI: Bir-birimiz bilan kelisha olmadik. Senga yaxshi ota bo‘la olmayapman. Endi tushundim. Senga yoqadimi yo‘qmi, menga farqi yo‘q. Men seni otangman sen uchun nima yaxshiligi bilaman. Kechir, Albus. Hammasi men aytganday bo‘ladi.

**To‘qqizinchi Parda**

**Xogvars. Zinapoya**

**ALBUS, GARRINING ortidan ergashadi.**

**ALBUS: Qochib ketsamchi ? Hali ko‘rasiz qochib ketaman.**

GARRI: Albus joyinga bor.

ALBUS: Qochib ketaman.

GARRI: Yo‘q qocha olmaysan.

ALBUS: Qochaman. Bu safar Ron amakim ham to‘a olmaydi.

RON: Kimdir meni chaqirdimi ?

Zinada RON paydo bo‘ladi. Uning ko‘rinishi g‘alati, kiyimi o‘ziga sal tor, juda bechoraxol ko‘rinadi.

ALBUS: Ron amaki ! Latifalaringiz juda sog‘indim. Bir ikkitasini aytib bering.

RON biroz hayratlanadi, keyin ho‘mrayadi.

RON: Latifa ? Latifalarni yaxshi bilmayman.

ALBUS: Siz ajoyib latifalaringiz bor edi-ku. Hazil-mutoyiba do‘koningiz ham bor.

RON: (Yanada hayratlanib) Hazil-mutoyiba do‘koni ? Men... Topilganidan hursandman. Men sen uchun ozgina shirinlik sotib olmoqchi edim... lekin Padma undan ko‘ra maktabiga kerakli biron nima olish taklifini berdi. Shu tariqa senga patqalamlar to‘plamini oldim. Ha,ha, Qara, eng zo‘ri.

ALBUS: Kim u Padma ?

GARRI, ALBUSGA o‘qrayib qaraydi.

RON (GARRIGA yuzlanib): Nima balo unitish afsuninidan foydalanishdimi ? (ALBUSGA yuzlanadi) Xotinim. Padma. Esladingmi ?

ALBUSNING yuziga yaqin keladi.Ozgina yalpiz hidi keladi.

Padma. Panjuning onasi. (GARRIGA yuzlanadi) Ha aytganday o‘zi bu yerga shu Panjuni deb keldim. Yana bir balolarni boshlabdi. Men unga qichqiriqnomal jo‘natmoqchi edim. Lekin Padma borishim kerakligini aytdi. Nega bunday qilaveradi hayronman. Ustimdan kuladimi ?

ALBUS: Lekin... siz Germiona bilan turmush qurgan edingiz-ku.

Bu gap uning yuragiga zarba bo‘ladi.

RON: Germiona ? Yo‘q. Merlinning soqoli haqqi. Nimalar deyapsan ?

GARRI: Albus hatto Griffindorda o‘qishi ham esida yo‘q.

RON: Og‘ayni sen rostdan ham griffindorda o‘qiysan

ALBUS: Qanday qilib Griffindorga tushdim ?

RON: Panju bilan, Griffindorda o‘qiymen deb garov o‘ynaganding. Keyin Saralovchi shlapani fikriga qarshi chiqib Griffindorga tushding.

ALBUS: Panju kim ?

RON va GARRI, ALBUSGA baqrayib qarayd.

RON: Nima ? O‘zingmisan ? Har narsa bo‘lishi mumkin ekan. Mayli men ketdim. Qichqiriqnomamush o‘zim ne axbolga tushuvdim bu narsani olib.

U ketadi. Avvalgi RONDAN asar ham yo‘q.

ALBUS: Buni hayratlanarli joyi yo‘q. Nimadir o‘zgaribdi.

GARRI: O‘zingni bunday tutib nimaga erishmoqchisan ? Ovvora bo‘lma men o‘z qarorimda qolaman.

ALBUS: Dada, sizda ikki yo‘l bor...

GARRI: Yo‘q seni qarshingda ikki yo‘l bor. Yo gapimga kirasan yoki yana katta muammolarga uchraysan.

SKORPIUS: Albus? Yaxshimisan? G‘alati voqealar sodir bo‘lyapti.

GARRI: U soppa-sog‘. Ketdik. Albus.

ALBUS yuragi ezilib SKORPIUSGA qaraydi.

SKORPIUS: Jinni bo‘lib qolish hech gap emas. Nimalar bo‘lyapti ?

ALBUS to‘xtab SKORPIUSGA o‘giriladi.

ALBUS: O‘xshadi shekilli.

SKORPIUS: Yo‘q. Lekin Albus...

GARRI: Men senga nima dedim ? Hoziroq bunga chek qo‘y. So‘ngi bor ogohlantirishim.

ALBUS bir do‘stiga bir otasiga qaraydi.

ALBUS: Bunday qilolmayman.

SKORPIUS: Nima qilolmaysan ?

ALBUS: Biz boshqa gaplashmasligimiz kerak.

SKORPIUS uning ortidan yuragi ezilib qarab qoladi.

## O‘ninchি Parda

### Xogvars, Direktor xonasi

**PROFFESSOR MAKGONAGAL** xo‘mrayib turgan bo‘ladi. **GARRI** unga muddaosini aytadi. **JINNA** ularga qarab turadi.

**PROFFESSOR MAKGONAGAL:** Menimcha Kafanduzd xaritasidan foydalanish, menimcha yaxshi fikr emas.

**GARRI:** Agar siz ularni birga yurishganini ko‘rsangiz, tezad borib ularni bir-biridan ajrating

**PROFFESSOR MAKGONAGAL:** Seningcha shu bilan masala xalmi ? O‘zi hammasiga Bashoratchi Kentavr Beyn sababchi. Bilasang, Beyn juda jahldor... Balki o‘zini va qabilasini o‘ylab shunday degandir.

**GARRI:** Beynga ishonaman. Albus o‘zini va boshqalarni tinchligi uchun undan nari yueishi kerak.

**JINNA:** Garri shuni nazarda tutyaptiki...

**GARRI:** Nimani nazarda tutayotganligimni professor juda yaxshi tushunib turibdi.

**JINNA, GARRINING** bunday munosabatidan hayratlanadi.

**PROFFESSOR MAKGONAGAL:** Albusni mamlakatning eng yaxshi sehrgarlari tekshirganda ham undan hech qanday Qora jodu yoki qarg‘ishga oid hech narsa topilmadi-ku.

**GARRI:** Dambil... Damblid... aytdik?

**PROFFESSOR MAKGONAGAL:** Kim ?

**GARRI:** uning portreti bilan gaplashdim. U menga bazi narasalarni aytidi.

**PROFFESSOR MAKGONAGAL:** Damblid o‘lgan, Garri. Senga avval

ham aytganman. Portretdagilar haqiqiy inson emas. Shunchaki ro‘yodir.

GARRI: Aytishicha, Muhabbat ko‘zimni ko‘r qilibdi.

PROFFESSOR MAKGONAGAL: Direktorning Portreti shunchaki xotira. Bu haqiqiy odamga asoslangan oddiy surat. U maslaxatgo‘y bo‘lgan shuning uchun balkim...

GARRI: Uning gapi rost

PROFFESSOR MAKGONAGAL: Garri, Albusni yo‘qotish senga kutilmagan zarba bo‘ldi. Uni izlashing va xavotirlaring sababli chandig‘ing og‘rigan bo‘lishi mumkin. Menga ishon bu ishing noto‘gri.

GARRI: To‘g‘ri Albus meni yoqtirmaydi lekin buni menga ahamiyati yo‘q U sog‘- salomat bo‘lsa menga shuni o‘zi yetarli. Sizni farzandingiz yo‘q-da bo‘lmasam meni qanday axvoldaligimni tushungan bo‘lardingiz.

JINNA: Garri !

GARRI: Tushumaysiz.

Bu gap unga og‘ir botadi.

GARRI: Bu xarita meni o‘g‘lim doim qayerda yurganligini ko‘rsatib turadi. Undan oqilona foydalnasiz degan umiddaman. Agar iltimosimni bajarmas ekansiz, Vazirlikdagi bo‘limimni kuchini sarflashimga to‘g‘ri keladi. Tushunarlimi ?

PROFFESSOR MAKGONAGAL: (Qo‘polikka javoban) Tushunganda qandoq.

JINNA, GARRIGA qaraydi. Kimga aylanib qolganini tushuna olmaydi.

## O‘n Birinchi Parda

Xogvars, Yovuz kuchlardan himoya darsi xonasi.

ALBUS xonaga kirib keladi.

GERMIONA: Iya, Bizning poyezddagi qoida buzarimiz-ku nixoyat qaytibdilarda.

ALBUS: Germiona ?

U ajablanadi. GERMIONA uning qarshisida turadi.

GERMIONA: Proffessor Grenjer.

ALBUS: Bu yerda nima qilyapsiz ?

GERMIONA: Dars o‘tyapman. Bolalar bi yerda nima qilyapsizlar ? Menimcha o‘qib o‘rganyapsiz shundaymi ?

ALBUS: Lekin siz... Siz vazir edingiz-ku

GERMIONA: Xom-xayollarga berilma, Potter. Bugun biz sizlar bilan Patronuslarni o‘rganamiz.

ALBUS: (Hayratlanib) Qanaqasiga bizning yovuz kuchlardan himaya o‘qituvchimiz bo‘lib qoldingiz.

Bolalar kulishadi.

GERMIONA: Sabr kosam to‘ldi. Ahmoqoma gaplari uchun Griffindordan o‘n balni ayiraman.

POLLI CHAPMAN: ( Norozi bo‘lib o‘rnidan turadi) Yo‘q, Yo‘q bunday qilmang. U ataylab qilyapti u Griffindorni yomon ko‘radi.

GERMIONA: Bundan battar chora ko‘rishimni istamasang joyinga o‘tirganing maqul, Polli Chapman.

ALBUS: Siz bunchalik qahri qattiq emas edinggiz-ku.

GERMIONA: Qahri qattiq degani uchun. Griffindordan yigirma yigirma bal ayiraman.

YAN FREDERIKS: Hoziroq joyinga o‘tirmasang, Albus...  
ALBUS o‘tiradi.

ALBUS: Men shunchaki...

GERMIONA: Yo‘q , Gapirma. Yaxshi munosabatda bo‘lishimni istasang joyingda qilt etmay o‘tir. Ana endi kim Patronus haqida biron bir malumot bera oladi, Patronus nima ? Hech kimmi ? Hech kim.

GERMION ayyorona kulib qo‘yadi. U juda jahldor bo‘ladi.

ALBUS: Yo‘q. Bemanilik. Roza qani ? U sizga o‘zingizni g‘alati tutayotganligingizni aytgan bo‘lar edi.

GERMIONA: Kim u Roza ? Ko‘rinmas do‘stingmi ?

ALBUS: Kim bo‘lardi. Qizingiz Roza Grenjer-Uizli. (Tushuna boshlaydi) ee xa siz Ron bilan turmush qurmagansiz demak Roza...

Kulgi ko‘tariladi.

GERMIONA: Ustimdan kulishga qanday hadding sig‘di. Bu ishing uchun Griffindordan o‘n besh bal ayiraman. Yana kimdir asabimni buzsa yuz balni...

U xonani ko‘zdan kechiradi. Hech kimdan g‘ing degan rovush chiqmaydi.

Yaxshi. Patronus - bu umid, baxt kabi hayoliy hissiyotlarni o‘zida mujassam etgan ijobjiy kuch. Bu yorug‘lik bergen in‘om. Agar siz Patronusni yarata oloshni o‘rgansangiz, dunyodadagi har qanday kuchdan himoyalana olasiz.

## O‘n Ikkinchchi Parda

### Xogvars, Zinapoyalar

**ALBUS bir tomonga qarab hech narsaga e‘tibor bermay** zinadan tepaga

chiqib boradi, Keuin ketadi. Zinapoyalar bir me‘yorda, xuddi raqsga tushayotgandek siljiydi.

U ketgandan so‘ng, zinada SKORPIUS paydo bo‘ladi. U ALBUSNI ko‘rgandek bo‘ladi. Lekin ketib bo‘lganligini tushinadi. Zinapoya joyidan siljiganda, SKORPIUS zinanimg bir qirgog‘iga o‘tirib oladi.

Zinada Xuch xonim paydo bo‘lib tepaga chiqa boshlaydi. Tepaga chiqib SKORPIUSGA ko‘zi tushadi. Va unga imo qiladi. SKORPIUS ketadi.

ALBUS paydo bo‘lib boshqa zinadan chiqa boshlaydi. Ular zinalar tutashgan joyda bir-birlari bilan uchrashishadi. Bolalar huddi barcha umidlar puchga chiqqandek bir-birlariga qarab qoladi. Keyin ALBUS yuzini buradi. Shu bilan uchrashuv yakunlanadi.

Zinapoya ikkiga bo‘linadi biri aybdorlik hissiga to‘la, ikkinchisi esa iztirobda. Ikkisi ham tushkunlikka tushgan.

## O‘n Uchinchi Parda

### **GARRI VA JINNA POTTERLARNING UYI. OSHXONA.**

JINNA va GARRI bir-birlariga qarab turishadi.

GARRI: Bundan o‘zga choram yo‘q edi.

JINNA: O‘zingni bunday deb oqlama

GARRI: sen o‘zing menga u bilan doim yaxshi munosabtda bo‘l degansan. Men yuragimga qulqoq tutyapman...

JINNA: Seni yuraging sehrgarlik olamidagi eng jo‘shqin yurakdir. Seni yuraging bunday deyayotganligiga tushuna olmayapman.

Eshik taqillaydi.

JINNA chiqib ketadi.

Zum o‘tmay, DRAKO kirib keladi.

Jahli chiqqan ammo buni yashiradi.

DRAKO: Ko‘p vaqtingni olmayman.

GARRI: Qanday yordam kerak ?

DRAKO: Men bu yerga eski yaralarni yangilash uchun kelmadim. O‘g‘lim yig‘layapti. Nima uchun sen bu ikki inoq do‘ssti bir biridan ajratmoqchisan?

GARRI: Men ularni ajratmoqchi emasman.

DRAKO: Dars jadvalini o‘zgartiribsan. O‘qituvchilar va Albusga turli gaplar bilan do‘q-po‘pisa qilibsan. Nima uchun?

GARRI, DRAKOGA extiyotkorona qarab, savoliga javob beradi.

GARRI: O‘g‘limni ximoya qilidhim kerak.

DRAKO: Skorpiusdanmi?

GARRI: Beyn aytdiki, o‘g‘lim atrofini zulmat qoplabdi.

DRAKO: Bu gaping bilan nimani nazarda tutyapsan , Potter.

GARRI, DRAKONIMG ko‘ziga tik qaraydi

GARRI: Sen... uni Haqiqatdan ham o‘z o‘g‘ling ekanligiga aminmisan?

Oraga daxshatli sukunat cho‘madi.

DRAKO: Gapingni qaytib ol bo‘lmasa...

DRAKO qo‘liga sehrli tayoqchasini oladi.

GARRI: Bunday qilma

DRAKO: O‘zing shunga majbur qilyapsan.

GARRI: Bu ishing oxiri voy.

DRAKO: Hozir voy-voylab yotishingni ko‘ramiz.

Ular bir-birlariga tayoqchalrini o‘qtab janga kirishadi.

DRAKO va GARRI: Ekspeliarmus !

Ularning sehrli tayoqchasidan chiqqan nur bir-biriga urilib har yoqqa sochiladi.

DRAKO: Insanio !

GARRI, DRAKONING tayoqchasidan chiqayotgan sehrli nurga chap berib qoladi.

GARRI: Trantallegra !

DRAKO o‘zini chetga otadi.

GARRI: Ancha shug‘illanibsan.

DRAKO: Sen esa ancha sustlashibsan, Potter. Desanjio !

GARRI chap beradi.

GARRI: Rikusemptra !

DRAKO stoldan foydalib o‘zini ximoyalaydi.

DRAKO: Flipendo !

GARRI xavoda gir aylana boshlaydi.

DRAKO kuladi.

Shunday tura-tur, qariya.

GARRI: Biz tengdoshmiz-ku.

DRAKO: Men qari bo‘lsam ham, hamon baquvvatman.

GARRI: Braxiaburdo !

DRAKO ximoyalanadi.

DRAKO: Qo‘lingadan kelgani shumi? Emansipea !

DRAKO o‘zini chetga oladi.

Levikorus !

GARRI chetga sakrab qochadi.

O qanday ajoyib...

DRAKO, GARRINI tepaga uchirib keyin pastga stolga uradi. GARRI yumalab qochadi, DRAKO stolga sakrab chiqadi va tayoqchasini shaylayotganida, GARRI sehrli tayoqchasini o‘qtab...

GARRI: Obskuro !

DRAKO o‘zini himoya qilishga ulguradi.

Yana janga kirishadi. GARRI unga stulni uloqtiradi.

DRAKO tayoqchasi yordamida stolni sekinlatib, havoda ushlab qoladi.

JINNA: Chiqib ketganimga uch daqiqa bo‘lgani yo‘q darrov janjallahdingizmi ?

U xonadagi tartibsizlikni ko‘zdan kechirib, xavoda muallaq turgan stulga ko‘zi tushadi va uni tayoqchasi yordamida joyiga qaytaradi.

(Qahr bilan) Nima bo‘ldi?

## **O‘n To‘rtinchi Parda**

### **Xogvars, Zinapoya**

SKORPIUS kayfiyati yo‘q holda zinadan tushib keladi.

DELFI qayergadir shoshayotgan bo‘ladi.

DELFI: Nimagayam bu joyga keldim?

SKORPIUS: Delfi?

DELFI: Adashib qoldim deb o‘ylagandim, hayriyatki seni topdim. Men tavakkalchi emasman. Hech qachon Xogvarsda bo‘lmajanman. Qorovuli ham juda beparvo ekan. Xonalari ko‘p, Portretlarga boy ekan. Arvoqlar ham ko‘p ekan. Qandaydir Deyarli boshsiz g‘alati bir arvoh seni qayerdan topishim mumkinligini aytdi.

SKORPIUS: Avvalari Xogvarsda bo‘lamaganmisan?

DELFI: Men... Bolaligimda... sog‘ligim yaxshi bo‘lmajan. Boshqalar shu yerda oqigan. Men esa yo‘q.

SKORPIUS: Kasalmiding? Kechirasan bilmagandim.

DELFI: Bu haqda gaplashmaylik. Menga qayg‘urib qaraydiganlarni yomon ko‘raman.

SKORPIUSGA bu hissiyot tanish. U biron nima deyish uchun boshini ko‘targanida, DELFI kelayotgan bir gala o‘quvchilardan yashirinish uchun orqaga tisariladi.

SKORPIUS ularni o‘tib ketishini kutib turadi.

Ketishdimi?

SKORPIUS: Bu yerda yurishing xavfli bo‘lishi mumkin.

DELFI: Nimadir qilish kerak.

SKORPIUS: Delfi, Bu vaqt bo‘ylab kechgan sarguzashtlaeimizdan foyda chiqmadi.

DELFI: Bilaman. Albus menga boyqushdan xabar yo‘lladi. Tarix o‘zgardi lekin Sedrik hamon marhum. U birinchi musobaqada muvaffaqiyatsizlikka uchragach qaytanga g‘alaba qozonish uchun kuchliroq harakat qildi.

SKORPIUS: Ron bilan Germionachi ularga nima bo‘ldi. O‘ylab- o‘ylab o‘yimga yeta olmayapman.

DELFI: Buni Sedrikka nima a‘loqasi bor. Hayronman... Vaqt chig‘irig‘ini o‘zingda olib qolib to‘g‘ri ish qilbsan. Siz ikkingiz biron nima qilishingiz kerak.

SKORPIUS: Exx

DELFI: Sizlar ajoyib do‘stsizlar. Uning xar bir xatida bir biringizdan uzoqlashib ketganingizni tushundim. U juda azobda.

SKORPIUS: Senga dardlarini aytibdida. Nechta xat yo‘lladi ?

DELFI ohista kuladi. Kechir Men... buni nazarda tutmagandim. Shunchaki... men nima bo‘layotganini tushuna olmayapman. U bilan ko‘rishib gaplashishga harakat qildim, lekin har safar u qochib ketaverdi.

DELFI: Bilasanmi sqndayligimda. Meni do‘stim bo‘lмаган... kimdir bilan tanishishni xoxlardim. Xatto...

SKORPIUS: Menda ham shunday bo‘lgan. Bir do‘stim bo‘lganu lekin hardoim tosh otish o‘yinida o‘zimizcha qoidalar yaratib janjallahish turardik.

DELFI: Bir biringizga keraksiz

SKORPIUS: Nimaga ?

DELFI: Bazida do‘stning nima keragi bor deb o‘ylab qolasan kishi, lekin bir kun kelib do‘st nima uchun kerakligini tushunasan. Skorpius dostingni qidir. Bir-biringizga keraksiz.

## O‘n Beshinchi Parda

### **Garri va Jinna Potterlarning uyi. Oshxona**

GARRI va DRAKO bir biridan uzoqroqda, ularning o‘rtasida JINNA o‘tirishadi.

DRAKO: Oshxonangni ostun-qilganim uchun uZR, Jinna

JINNA: . Bu meni oshxonam emas. Taomni ko‘proq Garri tayyorlaydi.

DRAKO: Sen Albus bilan murosaga kirisha olmagandek, Men ham Skorpius bilan hech hech murosaga kirisha olmadim. Ayniqsa onasining vafotidan so‘ng. O‘zing ko‘rib turibsanku ular inoq do‘st. Sen qandaydir dimog‘dor bir kentavrning gaplariga ishonib yuribsan.

GARRI: To‘g‘ri lekin...

DRAKO: Bilsang agar men doim senga xavas qilib kelganman... Uizli, Grenjer. Mening do‘stlarim esa...

JINNA: Krabbe va Goyl.

DRAKO: Supurgini sopi bilan supurgisini bir-biridan ajrata olmaydigan ikki ovsar. Sizlar esa boshqalardan ajralib turardingiz. Bir-biringizni qadrlardingiz. Birga baxtli edingiz. Men doim sizlarga xavas qilardim.

JINNA: Ha, ular havas qilsa arzugilik do‘stlar edi.

GARRI, JINNAGA hayratlanib qaraydi.

GARRI: Men uni himoya qilishim kerak.

DRAKO: Mening otam ham doim meni himoya qilyapman deb o‘ylagan. Qanday odam bo‘lishni o‘zing tanlarding. Sen o‘z otangni yaxshi ko‘rmasang, dardakash do‘stlarung ham bo‘lmasa ... yolg‘izlanib qolarkansan. Tom Reddl ham ko‘p yillar oldin yolg‘iz yashagan. Tushunyapsanmi Garri? Jinna ham tushunib turibdi.

JINNA: U haq

DRAKO: Tom Reddl ham yovuz bo‘lib tug‘ilmagan. Shunday kun kelgan Voldemortga aylangan. Menimcha Beyn ko‘rgan qora bulut bu Albusning yolg‘izligi, dilining og‘rig‘i va nafrati. O‘g‘lingni yo‘qotib qo‘yma ketin pushaymon bo‘lib qolasan. U senga kerak bilaman, Menga ham Skorpius kerak. Tushun.

GARRI, DRAKOGA qaraydi. O‘ylaydi. Bir nima deyishga og‘iz juftlaydi. Hech

nima demay o‘yga cho‘madi.

JINNA:

GARRI, xotiniga qaraydi.

## O‘n Oltinchi Parda

### Xogvars. Kutubxona.

SKORPIUS kutubxonaga kirib keladi. Atrofaga qarab, Albusni ko‘radi. ALBUS ham uni ko‘radi.

SKORPIUS: Salom.

ALBUS: Kechir, Skorpius. Men bunday qilolmayman.

SKORPIUS: Bilaman sen endi Griffindorda o‘qiysan. Endi meni ko‘rishni istamaysan. Men shunchaki kutubxonaga kelib, sen bilan gaplashyapman.

ALBUS: Lekin, Men sen bilan gaplasha olmayman.

SKORPIUS: Gaplashib olishimiz kerak. Atrofga qara, nimalar bo‘layotganini ko‘ryapsanmi?

ALBUS: Bilaman... Ron o‘ziga o‘xshamaydi. Germiona esa endi professor.

SKORPIUS: Roza esa umuman mavjud emas.

ALBUS: Bilaman. Lekin sen bu yerdan ketishing kerak.

SKORPIUS: Roza tug‘ilmabdi, Biz o‘zi nimalar qilib qo‘ydik. Uch Afsungar bellashuvida uyishtirilgan bal esingdami? Dadang Parvati Patilni taklif qilgan. Kram esa...

ALBUS: Germionanai taklif qilgan. Ronni rashki kelib, o‘zini jinnilikka solgan.

SKORPIUS: Lekin bunday bo‘limgan ekan. Men Rita Skiterning ular haqidagi kitobini topib oldim. Bu yerda umuman boshqacha yozilgan ekan. Ron, Germionani taklif qilib, birga raqsga tushgan ekan.

ALBUS: Nima?

POLLI CHAPMAN: Sh-shsh.

SKORPIUS, POLLIGA qaraydida ovozini paslatadi.

SKORPIUS: Ron va Germiona birga do'stona raqsga tushishgan, keyin Ron, Padma Patil bilan raqsga tushgan, shu tariqa u bilan uchrasha boshlagan keyin turmush qurishgan. Germiona ham ancha...

ALBUS: Telbanamo bo'lib qolgan.

SKORPIUS: Germiona balga Kram bilan borishi kerak edi. Bilasanmi nima uchun bormagan? chunki Sedrikning tayoqchasi yo'qolishidan oldin u ikki shubhali durmstrang o'quvchilarini ko'rgan edi. Sedrikni bellashuvdan chiqarish uchun ularni Kram yollagan degan o'yagan va shu tariqa Ronning taklifiga rozi bo'lgan.

ALBUS: Buni qaraya !

SKORPIUS: Kram bo'lmagandan keyin Ron ham rashk qilmagan. Hammasi shu rashkka bog'liq edi. Shunday qilib Germiona va Ron inoq do'st bo'lib qolishgan, bir-birini sevmagan, turmush qurishmagan va qizi Roza ham tug'ilmagan.

ALBUS: Dadamchi? Dadam ham o'zgardimi?

SKORPIUS: Aminmanki, otang qanday bo'lsa shundayligicha qolgan. Sehrgarlik qonunlarini tatbiq etish bo'limi boshlig'i. Jinna bilan turmush qurgan. Uch farzandi bor.

ALBUS: Unda nega..?

Xonaning orqa eshidigan kutubxonachi kirib keladi.

SKORPIUS: Eshityapsanmi, Albus? Bu shunchaki tasodif emas. Professor Krokerning qonuniga ko'ra, Agar inson (o'ziga va boshqalarga ziyon yetkazishini istamasa) Vaqt bo'yab besh soatdan ortiq o'tmishga qaytmasligi kerak. Biz esa necha yillar ortga qaytdik. Birgina xato orqali juda katta zarar yetkazdik. Biz sababli Roza tug'ilmadi.

KUTUBXONACHI: Sh-sh !

ALBUS tezda bir to'xtamga keladi.

ALBUS: Mayli. Kel ortga qaytib bu xatoni tuzatamiz. Sedrik va Rozani qutqaramiz.

SKORPIUS: Bu yomon fikr.

ALBUS: Vaqt chig'irig'i senda turibdimi ? Hech kim ko'rmadimi ?

SKORPIUS cho'ntagidan vaqt chig'irig'ini oladi.

SKORPIUS: Ha lekin...

ALBUS uning qo'lidan vaqt chig'irig'ini tortib oladi.

Yo'q bunday qilma. Sen buni qanday yomon oqibablarga olib kelishini tushunmayapsan.

SKORPIUS vaqt chig'irig'ini olishga harakat qiladi. ALBUS uni itarib yuboradi. Ular tortisha boshlaydi.

ALBUS: Bu muammoni hal qilmasak bo'lmaydi. Sedrikni qutqarishimiz, Rozani ortga qaytarishimiz kerak. Bu safar ehtiyotkor bo'lamiz. Menga ishon. Bu safar hammasi yaxshi bo'ladi.

SKORPIUS: Yo'q bunday qila qilmaymiz. Menga ber.

ALBUS: Yo'q bermayman. Bu muhim.

SKORPIUS: Tog'ri bu muhim. Lekin biz bu ishni uddalay olmaymiz qo'limizdan kelmaydi.

ALBUS: Kim aytdi senga qo'limizdan kelmaydi deb?

SKORPIUS: Men aytdim. Shunday bo'ladi. Hammasini chippakka chiqardik. Biz yengildik. Hammasini boy berdik. Tushunyapsanmi ?

ALBUS: Biz hali yengilganimiz yo'q.

SKORPIUS: Sen bu haqda dadangga aytishing kerak.

ALBUS: Dadamga hech narsani aytmayman. Men Roza va Sedrikni qutqarishim kerak. Sensiz ham bu ishni uddalayman.

SKORPIUS: Mensiz? Voy bechora, Peshonang sho'r ekan, Albus Potter. Naqadar ayanchli.

ALBUS: Nima deding ?

SKORPIUS: (jahli chiqadi) Sen meni o'rnimda yashab ko'r tushunasan. Odamlar Seni otang mashxur Garri Potter- sehrli olam halaskori deyishadi. Meni esa Voldemortni o'gli deyishadi. Voldemortni.

ALBUS: Chegaradan o'tma...

SKORPIUS: Sen buni qanday isnod ekanligin tushunyapsanmi? Hech his qilganmisan? Yo'q. Sen faqat o'zingni o'ylaysan. Otang bilan bo'ladigan axmoqona muammolaringdan o'zga muammoing yo'q. Tushun. U Garri Potter bo'lib qolaveradi, sen esa uni o'g'li bo'lib qolaverasan. Bilaman bu ham bir mas' uliyatni yuklaydi. Lekin istasang-istamasang u seni otang bunga ko'nikishga majbursan. Tushunarlimi?

Qisqa jimlik.

Men bir paytlar baxtli edim. O'sha paytda onam kasal bo'ladi, vafot etadi deb o'ylamagan edim. Lekin afsus vafot etdi. Men esa haliyam Voldemortning o'g'liman. Agar xayotingni ostun-ostun qilgan bo'lsam uzr. Shuni aytib o'toshim kerakki, sen meni hayotimni barbod qilmading. Meni hayotim allaqachon barbod bo'lgan. Ovvora bo'lma qo'lingdan hech narsa kelmaydi. Sen yomon do'stsan eng yomon do'st.

ALBUS eshitgan gaplarini o'ylaydi va Do'sti bilan nima qilganligini tushunadi.

PROFFESSOR MAKGONAGAL:(Sahna ortidan) Albus Potter. Skorpius Malfoy. Birgamisizlar? Men sizga aytgandimku bunday qilmang deb.

ALBUS, SKORPIUSGA qaraydi va sumkasidan plashni chiqaradi.

ALBUS: Tezroq. Yashirinishimiz kerak.

SKORPIUS: Nima?

ALBUS: Skorpius.

SKORPIUS: ko'rinmas plashmi? bu jeymsniki emasmi ?

ALBUS: Agar u bizni birligimizni ko'rsa, boshqa hech qachon uchrasha olmaymiz. Meni kechir. Tushundim. Iltimos.

PROFFESSOR MAKGONAGAL: (sahna ortidan, ularga so'ngi bor imkon berib) Kiryapman.

Xonaga PROFFESSOR MAKGONAGAL kirib keladi. Uning qo'lida Kafanduzd xaritasi bo'ladi. Bolalar ko'rinnmas plashga yashirinishadi. PROFFESSOR MAKGONAGAL jahl bilan atrofga alanglaydi.

Qani ular... Nima bu xarita men bilan xazillashyaptimi?

O'ylaydi xaritaga yana qaraydi va yana xonani ko'zdan kechiradi. Bolalar buyumlarga yaqin kelib ularni qimirlatib yuboradi. PROFFESSOR MAKGONAGAL ularni qayerda yashiringanligini ko'radi va to'xtatmoqchi 199702bo'lganda fikridan qaytadi.

Balki... unday emasov... Otangni ko'rinnmas plashi...

U yana bir bor xaritaga qaraydi keyin bolalar tomonga qaraydi. Kulib qo'yadi.

Mayli, ko'rmayin ham, kumayin ham.

U ketadi.

Bolalar plashni yechishadi.

ALBUS: Buni Jeymsdan og'irlab oldim o'g'irlash oson kechdi. Uning chemodani qulfining paroli: U birinchi marta supurgi olgan kunning sanasi edi. Plash bezorilardan himoyalanishga kerak bo'lib qolar degandim... yaxshi himoya qildi.

SKORPIUS bosh qimirlatib qo'yadi.

Afssusdamon. Bilaman oying haqida ko'p gaplashmaganmiz. Bu haqda o'ylash og'ir... seni tushunaman.

SKORPIUS: Rahmat.

ALBUS: Dadam aytishicha men zulmat domida ekanman. Sen meni shu yo'lga boshlayabsan ekan. Men sendan nari yurishimning sababi shu. Agar gapiga quloq solmasam.

SKORPIUS: Otang, mish-mishlarga ishonib meni Voldemortning o‘g‘li deb o‘yayapti, Shekilli?

ALBUS: (Bosh qimirlatib) uni bo‘lunmasi ham shu ishni tekshiryapti.

SKORPIUS: Juda yaxshi. Shug‘ullanaversin. Bazida... bazida o‘zim ham bu mish-mishlar o‘zim ham ishona boshlayman.

ALBUS: Yo‘q, bu yolg‘on. Chunki Voldemortning o‘gli bunchalik mehribon-oqko‘ngil bo‘lmaydi. yuz foiz ishonib aytamanki Voldemortning hech qachon sendaka o‘g‘li bo‘lmasdi.

SKORPIUS: Rahmat.

ALBUS: Anchadan beri men senga bir gap aytmoqchi edim. Sen men bilgan insonlar ichida eng yaxshisan. Sen menga madad bo‘lasan. Olam ikkimizni ayirganda... sensiz...

SKORPIUS: Sensiz mening hayotim ham zerikarli.

ALBUS: Bir umr Garri Potterni o‘g‘li bo‘lib qolishimni... bunga ko‘nikishdan boshqa ilojim yo‘qligini o‘zim ham bilaman. Sen bilan doim ishlarim yaxshi kechadi... Otam bilan ham shunday bo‘lganda edi...

SKORPIUS: O‘zing haqingda juda ko‘p gapirib yubording.

ALBUS kulib, qo‘lini uzatadi.

ALBUS: Do‘stmizmi?

SKORPIUS: Ha, hamisha do‘stmiz.

SKORPIUS uni qo‘lini siqadi. ALBUS uni quchoqlab oladi.

Ikkinci marta quchoqlashing.

Bolalar tisarilib kulib qo‘yishadi.

ALBUS: Bu kelishmovchilik bo‘lgani ajoyib bo‘ldi. Bu menga ajoyib g‘oya berdi.

SKORPIUS: Qanday g‘oya?

ALBUS: Ikkinci topshiriq. Sharmandagarchilik.

SKORPIUS: yana o‘tmishga qaytishmi? Biz bu haqda gablashib oldik-ku.

ALBUS: Biz yutqazdik. Biz doim yutqazib kelganmiz. Kel shu yutqazish ilmimizga tayanaylik. Ikkinci musobaqada uni sharmanda qilishimiz kerak.

ALBUS uzoq uzoq o‘ylanadi keyin kuladi

SKORPIUS: Bu yaxshi g’oya

ALBUS: Bilaman.

SKORPIUS: Aytmoqchisanki, uni qutqarish uchun sharmanda qilmoqchimsan, shundaym? Rozanichi uni qanday qutqaramiz?

ALBUS: Yana bir gap bu ishni sen siz ham uddalay olaman. Lekin birga bajarishni istaynan. Birgamizmi?

SKORPIUS: Bir daqqa... ikkinchi musobaqa ko‘lda o‘tkazikgan-ku. Senga mактабдан bir qadam ham nariga chiqishga ruhsat yo‘q.

ALBUS: Mayli... Birinchi qavatdagi ayollar xojatxonasiга tushishimiz kerak.

## O‘n Yettinchi Parda.

### Xogvars, Zinapoyalar

Ron o‘z hayollariga berilib zinadan tushib kelayotganida, GERMIONANI ko‘rib hushini yig‘ib oladi.

RON: Proffessor Grenjer.

GERMIONA uni ko‘rishi bilan yuragi dukillay boshlaydi. Lekin buni sezdirmaydi.

GERMIONA: Ron, Bu yerda nima qilyapsan?

RON: Panju, sehrli damlamalar tayyorlash fanida kichkina muammo chiqariibdi. O‘zini ko‘rsatmoqchi bo‘lib, har-xil damlamalarni aralashtirib yuboribdi. Qarabsangki qoshi to‘kilib uzun mo‘ylov o‘sib chiqibdi. Men kelmoqchi emasdum.

Lekin Padma Bunday vaziyatlarda ota o‘g‘liga yordam berishi kerak dedi.  
Sochingni turmaklabsanmi?

GERMIONA: Shunchaki, taradim.

GERMIONA, RONGA ozgina hayrat bilan boqadi.

RON: Yarashibdi.

GERMIONA: Balki menga bunday qarashni bas qilarsan ?

RON: (dadillik bilan) Bilasnmi Garrining o‘g‘li Albusning aytishicha biz er-xotin  
bo‘lgan emishmiz. Xa-xa-xa . Bemanigarchilik to‘g‘rimi

GERMIONA: To‘g‘ri, bemanilik

RON: Qizimiz ham bor emish. G‘alatiya ?

Ular bir-birining ko‘ziga tik qarashadi.

GERMIONA birinchi bo‘lib nigohini buradi.

GERMIONA: Ha g‘alati.

RON: Biz shunchaki do‘stmizku, shunchaki do‘stlar.

GERMIONA: To‘g‘ri shunchaki do‘stmiz.

RON: Do‘stlar- Ajoyib so‘z. Ajoyib emas oddiy so‘z. Do‘stlar do‘st o‘rtoq.  
Mening do‘stimsan. Mening Germionam emas... o‘zing tushunasanku

GERMIONA: Tushunaman.

Qisqa jimlik. Ikkovi joyidan qo‘zg‘almaydi. Xayajonlanishadi. RON yo‘talib  
qo‘yadi.

RON: Mayli, Panjuga yordam beray mo‘ylovdan halos bo‘lish yo‘lini o‘rgatay.

U keta boshlaydi va ortiga o‘giriladi. GERMIONA ham o‘giriladi. RON keta  
boshlaydi

Rostdan ham soch turmaging o‘zinga yarashibdi.

## **O‘n Sakkizinchchi Parda**

### **Xogvars, Direktor xonasi**

PROFESSOR MAKGONAGAL xaritaga xo‘mrayib qarab turib sehrli tayoqchasini tekkizadi. Keyin kuladi.

PROFESSOR MAKGONAGAL: Sho‘xlik amalga oshdi!

Shovqin eshitiladi.

Atrof silkina boshlaydi.

Kaminda JINNA va uning ortidan GARRI paydo bo‘ladi.

PROFESSOR MAKGONAGAL: Potterlar qaytdingizmi. Yana gilamimni kir qildingiz.

GARRI: O‘glimni topishim kerak.

PROFESSOR MAKGONAGAL: Garri, men bu haqda o‘ylab, boshqa bu ishga aralashmaslikka qaror qildim. Do‘q -po‘pisalaringiz bilan...

GARRI: Minerva, men bu yerga tinchlik istab keldim, do‘q-po‘pisa qilgani emas.

PROFESSOR MAKGONAGAL: O‘ylashimcha siz bilan do‘stona mumosabatda bo‘la olmayman.

GARRI: Meni kechiring, iltimos o‘glimdan ham kechorim so‘rashga izn bering Shovqun- suron bilan DRAKO paydo bo‘ladi.

PROFESSOR MAKGONAGAL: Drako?

DRAKO: U o‘g‘lini ko‘rmoqchi men esa o‘z o‘glimni ko‘rmoqchiman.

GARRI: Aytganimdek, Tinchlik istab keldik.

PROFESSOR MAKGONAGALNING qiyofasi o‘zgaradi. U o‘zi ko‘rishni istagan samimiylikni ko‘radi. U cho‘ntagidan xatitani olib ochadi.

**PROFFESSOR MAKGONAGAL:** Shunday ekan nima ham deya olardim. Biron bir yaxshilkni niyat qilmaganlihimiga tantanavotr ravishda ont ichaman.

Tayoqchani xaritaga tekkizadi.

Xarita ochiladi.

Ulat birga yurishibdi.

**DRAKO:** Birinchi qavatdagi ayollar hojatxonasida nima qilishyapti ?

## **O‘n To‘qqizinchı Parda**

### **Xogvars. Ayollar xojatxonasi.**

SKORPIUS va ALBUS kirib kelishadi. Markazda Malika Viktoriya hukmronligi davridagi chig'anoq bo'ladi.

SKORPIUS: Rejaga ko'ra engorgio afsunidan foydalanish kerakmi?

ALBUS: Ha, Ana usovun bo'lagini olchi.

SKORPIUS chig'anoqdan sovun bo'lagini oladi.

Engorgio!

ALBUS sehrli tayoqchasi bilan afsunlaydi. Sovun to‘rt barobarga yiriklashadi.

SKORPIUS: Ajoyib. Qoyilmaqom

Ikkinci musobaqada ko‘l bo‘lgan. O‘girlanganlarni qutqarishadi. O‘g‘irlanganlar bular...

SKORPIUS: O‘zlari yaxshi ko‘rgan insonlar bo‘lishadi.

ALBUS: Sedrik suv ostida suzish uchun bosh pufagi afsunidan foydalangan. Uning ortidan kuzatib, borib boshiga qarata Engorgio afsunini qo‘llaymiz. qilishimiz kerak. Keyin suv yuzasiga qalqib chiqishi va musobaqadagi mag‘lubiyatini tomosha qilamiz. Vaqt chig‘irig‘i o‘tmishda qolishga ko‘p vaqt bermaydi, shuning uchun bu ishni tezda bajarishimiz kerak.

SKORPIUS: Lekin... bitta savol bor, eanday qilib ko‘lga boramiz.

Shu payt chig‘anoqdan suv sharillab oqa boshlaydi. Keyin juda xo‘l bo‘lib ketgan YIG‘LOQI MIRTL paydo bo‘ladi.

YIG‘LOQI MIRTL: Qoyil. Mazza. Menday bo‘lganingizda siz ham ko‘nglingiz tusagan ishni qilasiz...

SKORPIUS: Albatta, Yig‘loqi Mirtl. Sen dahosan.

YIG‘LOQI MIRTL: Nima deding? Yig‘layapmanmi? Ko‘zimda bir tomchi ham ko‘z yoshim yo‘qku. Yoki ko‘rdingmi? Sendan so’rayapman ko‘rdingmi?

SKORPIUS: Yo‘q, Men buni nazarda tutmoqchi emasdim...

YIG‘LOQI MIRTL: Ismimni bilasanmi?

SKORPIUS: Mirtl.

YIG‘LOQI MIRTL: Shunchaki Mirtl emas. Chiroyli ismim bor, Mirtl Elizabet Uoren. Shuning uchun meni yig‘loqi deb atama.

SKORPIUS: Ho‘p, yaxshi.

YIG‘LOQI MIRTL: (kuladi) Bu yerga o‘gil bolalar kirmaganiga ancha yil bo‘lgandi. Potter doim meni ojiz tomonim bo‘lgan. Malfoyga ham doim iltifotli bo‘lganman. Xo‘sish, sizlarga qanday yordam kerak?

ALBUS: Sen u yerda bo‘lgansan, ko‘lda. Ular sen haqingda yozishgan. Demak, bu quvurlar bizni ko‘lga olib boradi. Shundaymi?

YIG‘LOQI MIRTL: Ko‘p joylarda bo‘lganman, nima qilmoqchisizlar o‘zi?

ALBUS: Uch afsungar bellashuvining ikkinchi musobaqasi. Yigirma besh yil oldin. Garri va Sedrik.

YIG‘LOQI MIRTL: Ex, Yoqimtoygina bola bekorga o‘lib ketgan. Seni otang unchalik yoqimtoy emas... Lekin Sedrik Diggori... Xojatxonaga kirib qancha qizlar yig‘lagan...

ALBUS: Mirtl, bizga yordaming kerak, ko‘lga borishimoz kerak.

YIG‘LOQI MIRTL: Nima men vaqt bo‘ylab sayohat qila oladiganga o‘xshaymanmi?

ALBUS: Sir saqlay olasanmi.

YIG‘LOQI MIRTL: O, albatta, sof toza yuragim bilan ont ichaman. Bu sirni o‘la-o‘lganimcha saqlayman. O‘lganimdan keyin ham.

ALBUS, SKORPIUSGA qarab bosh qimirlatadi. SKORPIUS cho‘ntagidan vaqt chig‘irig‘ini oladi.

ALBUS: Biz vaqt bo‘ylab sayohat qila olamiz. Sen bizga ko‘lga chiqish yo‘lini ko‘rsat. Biz Sedrik Diggorini qutqarmoqchimiz.

YIG‘LOQI MIRTL: (miyig‘ida kulib) Juda qiziqqa o‘xshaydi.

ALBUS: Vaqtimiz kam, shoshilishimiz kerak.

YIG‘LOQI MIRTL: Manabu chig‘anoqdan foydalanib, ko‘lga chiqish mumkin. Maktab Qonun-qoidalarga zid, lekin bu maktabgilarni hammasiyam qoidalarga amal qilavermaydilar. Shu quvurdan tushsangiz, Quvurlar siznibkerakli joyga olib boradi.

ALBUS va SKORPIUS Ridosini yechishadi. ALBUS sumkasidan bir-nechta yashil barglarni olib, SKORPIUSGA uzatadi.

ALBUS: Ozgina menga, ozgina senga.

SKORPIUS: Oyquloq o‘stiruvchi giyoh-ku, suv ostida nafas olish uchun shundan foydalnamizmi?

ALBUS: Xuddi otamdek. Tayyormisan?

SKORPIUS: Bu safar xato qilishimizga haqqimiz yo‘q.

ALBUS: Besh daqiqa vaqtimiz bor, besh daqiqadan so‘ng hozirgi vaqtga qaytamiz.

SKORPIUS: Hammasi ko‘ngildagiday bo‘ladimi?

ALBUS: Albatta, hammasi zo‘r bo‘ladi. Tayyormisan?

Albus giyohni olib quvurga sakraydi.

SKORPIUS: Shoshma, Albus... Albus

U ortiga qaraganda ALBUS g‘oyib bo‘lgan bo‘ladi.

SKORPIUS va YIG‘LOQI MIRTL yolg‘iz qolishadi.

YIG‘LOQI MIRTL: Menga dovyurak bolalar yoqadida.

SKORPIUS:(ozgina qo‘rqadi, keyin dadil bo‘ladi.) Endi tayyorman.

Sahnada YIG‘LOQI MIRTL yolg‘iz qoladi.

Atrof yorishadi, baland shovqin eshitiladi va vaqt to‘xtaydi. Vaqt chig‘irig‘i buriladi. soniya millari ortga burila boshlaydi.

Bolalar ketishadi.

Garri yugurib kirib keladi. Uning ortidan DRAKO, JINNA va PROFFESSOR MAKGONAGAL kirib keladi.

GARRI: Albus... Albus...

Ular yerda yotgan ridoni topishadi.

PROFFESSOR MAKGONAGAL: (Xaritaga qarab) Ular go‘yib bo‘lishdi. Yo‘q. Xogvarsning ostoda paydo bo‘lishdi. Yo‘q. Yana go‘yib bo‘lishdi.

DRAKO: Qanaqasiga g‘oyib bo‘lishadi?

YIG‘LOQI MIRTL: Qandaydir alambalo shiqildoqdan foydalanishdi.

GARRI: Mirt?

YIG‘LOQI MIRTL: Voy! Meni tutding. Sendan hech nimani yashirib bo‘lmaydiya? Salom, Garri. Salom Drako. Sho‘xlik qilib yuribsizmi?

GARRI: Qanaqa shiqildoqdan foydalanishdi?

YIG‘LOQI MIRTL: Bu sir. Ayta olmayman. Garri, o‘zingmisan? Ancha ulg‘ayib yanada ko‘rkam bo‘lib ketibsan.

GARRI: O‘g‘limning hayoti xavf ostida, Mirtl. Menga yordaming kerak. Ular nima qilishyapti?

YIG‘LOQI MIRTL: Bir yoqimtoy yigitni qutqarishmoqchi. Sedrik Diggorini.

GARRI shu zahoti nima bo‘layotganligini tushunib daxshatga tushadi.

PROFESSOR MAKGONAGAL: Lekin Sedrik Diggori ko‘p yillar oldin xalok bo‘lgam-ku.

YIG‘LOQI MIRTL: Ular biror- nimani o‘zgartirishga ishonchi komil. O‘g‘ling ham o‘zinga o‘xshagan qat’iyatli.

GARRI: U menimcha Diggori bilan bo‘lgan suhbatimni eshitgan. Balki unda... Vazirlikdagi vaqt chig‘irig‘i bordir... Yo‘q bo‘lishi mumkin emas.

PROFESSOR MAKGONAGAL: Vazirlikda vaqt chig‘irig‘ini bormi? Yo‘q qilingandi-ku

YIG‘LOQI MIRTL: Hammangiz juda jiddiy ekansiz.

DRAKO: Kimdir tushuntirib bera oladimi, nimalar bo‘lyapti o‘zi ?

## **Yigirmanchi Parda**

### **Uch afsungar Bellashuvi, Ko‘l, 1995-yil.**

LYUDO BEGMAN: Xonimlar va janoblar, qizaloq va yigitlar. Qarshi oling afsonaviy, qiziqarli va o‘ziga xos Uch afsungar bellashuvi.

Gulduros qarsaklar yangraydi.

Xogvarsliklar, Qarsaklarining eshitilmayapti.

Gulduros qarsaklar yana bir bor yangraydi.

Durmstrang

Qarsaklar yangraydi.

Sharmbaton faolroq bo‘ling.

Blandroq qarsaklar yangraydi.

Bugun Fransuzlarning kayfiyati yaxshi... Musobaqa boshlandi! Viktor akulaga aylandi. Flyorning ko‘rinishi ajoyib. Dovyurak Garri oyquloqlardan foydalanmoqda. Doxiyona g‘oya. Sedrik esa... voy ayyorey, xonimlar va janoblar Sedrik suv tubida suzish uchun bosh pufagi afsunidan foydalanmoqda.

Sedrik Diggori, bolalar tomonga yaqinlashib keladi. Boshiga pufak kiyib olgan bo‘ladi

ALBUS va SKORPIUS birvaqtida tayoqlarini SEDRIK tomon o‘qtab, kattalashtiruvchi afsunni qo‘llashadi. SEDRIK o‘girilib ularga hayrat ila boqadi. Jodu ta‘sir qila boshlaydi. Suv oltin tusda tovlanadi. SEDRIKNING boshidagi pufagi o‘sib-o‘sib kattalashib, juda baxaybat bo‘lib ketadi. Sarosimaga tushib atrofga alanglaydi. U tepaga qalqib chiqa boshlaydi.

O, yo‘q,nimalar bo‘lyapti. Sedrik Diggori suvdan chiqmoqda, aftidan musobaqani tark etadiganga o‘xshaydi. O, xonimlar va janoblar hali g‘oliblarimiz yo‘q,lekin mag‘lubiyat alamini tortadigan ishtirokchimiz bor.

SEDRIK DIGGORI ulkan pufak bilan paydo bo‘ladi.

Shar uchib ketyapti. Afsus, Shunday qilib... Iya, buyog‘i qiziq bo‘ldi-ku. Sedrikning atrofida mushakbozlik bo‘lib, Ron, Germionani sevadi yozuvi paydo bo‘ldi. Shunday paytda sevgi izhor ham qiladimi? Bechora Sedrikka qarang. Biror nima deya olmayman. Bundanda ortiq sharmandalik bo'lmasa kerak.

ALBUS mamnun bo‘lib, suv tubidan turib Skorpiusga besh tashlaydi.

ALBUS suv tubidan turib tepani ko'rsatadi. SKORPIUS jilmayadi. Ular tepaga suza boshlashadi. SEDRIK samoda muallaq turadi. Hamma uning ustidan kula boshlaydi. Shu payt atrof qorong'ulasha boshlab, Qop-qorong'u bo'ladi.

Keyin hamma yoq yorishadi. Shovqun-suron bo'ladi, Vaqt chig'irig'i shiqillay boshlaydi. Keyin tinchiydi. Vaqt o‘z joyiga qaytadi.

SKORPIUS suvdan otilib chiqib, g‘alabani nishonlaydi.

SKORPIUS: Vuuuu-Xuuuuu! Qoyil!

Atrofga qaraydi. U qo‘lini ALBUS bilan besh tashlash uchun ko‘taradi.

Uddaladik!

Javoban qarsak chalinishini kutadi.

Albus?

ALBUS ko‘rinmaydi.

SKORPIUS suvgaga qayta sho‘ng‘iydi. Qaytib chiqadi. Sarosimaga tusha boshlaydi.

Albus... Albus... Albus...

Qandaydir shhivirlagan ovoz eshitiladi. Butun auditoriyaga eshitiladi.

U yaqin. U yaqin. U yaqin.

DOLORES AMBRIJ: Skorpius Malfoy. Tezda suvdan chiq. Chiq dedim.

U SKORPIUSNI suvdan chiqarib oladi.

SKORPIUS: Xonim, Yordamingiz kerak

DOLORES AMBRIJ: Xonim? Men professorman. Maktabingni direktoriman.

SKORPIUS: Direktor? Lekin...

DOLORES AMBRIJ: Ha direktorman. Balki oilangni yordamisiz... lekin bu senga istagan ishingni qilishing mumkin degani emas.

SKORPIUS: Bu ko‘lda meni do‘stim... yordam bering. Xonim. Professor. Direktor. Men uni topa olmayapman. U ham Xogvars o‘quvchisi. Albus Potter. DOLORES AMBRIJ: Albus Potter? bunaqa ismni eshitmaganman. Maktabimizda bunday ismli o‘quvchi yo‘q! Potter familiyali o‘quvchi bo‘lgan, ancha yillar oldin. Kim bilibdi, uni o‘lib ketishini.

SKORPIUS: Garri Potter o‘ldimi?

Shu payt auditoriyada yengil shamol esadi. Odamlar orasida qora ridoli sharpalar

paydo bo‘ladi. Ular Dementorlar bo‘ladi. Dementorlar auditoriya bo‘ylab uchishadi.

Shamol tinmaydi. Shu payt atrofda shivir-shivir eshitiladi. Bu o‘sha ovoz. Voldemortning ovozi...

## GAAAARRI POTTERR

Garrining ko‘rgan tushlari haqiqatga aylanadi.

DOLORES AMBRIJ: Nega bunga qiziqib qolding? Garri Potter bundan yigirma yillar oldin, muvaffaqiyatsizlikka uchragan davlat to‘ntarilishida halok bo‘lgan. Biz Xogvars uchun Damblor terroristlari bilan mardlarcha jang qilganmiz, Potter ham ularning biri edi. Bo‘ldi, qani tezda oldimga tush. Nima karomatlar ko‘rsatmoqchisan o‘zi? Dementorlarni ham chiqarib yuboribsan. Voldemort kunini ham barbod qilding!

Ilon tilidagi shivir-shivir yanada balandlash-balandlasha boshlab, juda qo‘rqinchli ovozlar eshitiladi. Sahnada ilon timsoli tushirilgan ulkan sur'at paydo bo‘ladi.

SKORPIUS: Voldemort kuni?

Sahna chiroqlari o‘chirilib, pardalar tushiriladi.

## BIRINCHI QISM TUGADI.

TARJIMON: Asadbek Tolipov To‘lqin o‘g‘li

@GARRIPOTTER8  
@Dumbledore\_army01











